

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 179 (1778), 2026-yil 31-avgust, dushanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

AZALIY DO‘STLIK, O‘ZARO ISHONCHGA ASOSLANGAN O‘ZBEKISTON – HINDISTON
HAMKORLIGI KENG QAMROVLI STRATEGIK SHERIKLIK DARAJASIGA CHIQDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modi 29-30-avgust kunlari davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo‘ldi.



30-avgust kuni Ko‘ksaroy qarorgohida Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modini tantanali kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo‘lib turgan oliy martabali mehmonni samimiy kutib oldi. Ikki mamlakatning davlat bayroqlari ko‘tarilib, madhiyalari yangradi.

O‘zbekiston va Hindiston tarixi qanchalik qadimiy bo‘lsa, xalqlarimiz o‘rtasidagi hamkorlik ham shunchalik chuqur ildizlarga ega. Zero, ajdodlarimiz qadimiy La‘l yo‘li orqali miloddan avvalgi yillarda ham zargarlik, hunarmandchilik, oziq-ovqat mahsulotlari bilan birga bilim va tajriba almashgan. Abu Rayhon Beruniy bobomiz Hind zaminiga borib, Hindiston tarixi, madaniyati, ilm-fani hamda dini haqida “Kitob ul-Hind” asarini yozganidan keyin oradan qariyb ming yil o‘tgan bo‘lsa-da, ushbu tarixiy voqelikka nisbatan yaqin tarixdek qarashimiz boisi ham shunda.

Dunyo mo‘jizalaridan biri — boburiylar sulolasi tomonidan bunyod etilgan Tojmahal, hindistonliklar muloqotiga singib ketgan turkiy so‘zlar yoki o‘zbek jamiyatida hind kinolarining sevib tomosha qilinishi kabi yana ko‘plab jihatlar xalqlarimiz o‘rtasidagi

aloqalar nafaqat qadimiy ekani, balki shunga mos ravishda uzviy davom etib kelayotganini ham ifodalaydi.

Ha, ayni tarixiy bog‘liqlik, tadrijiy uzviylik bugun mamlakatlarimiz o‘rtasida zamonaviy strategik sheriklik, iqtisodiy diplomatiya, investitsiyaviy hamkorlik, ta‘lim va madaniy aloqalar rivojida mustahkam zamin bo‘lmoqda.

Bu — o‘zaro yaqinlikning bir asosi. Bu yerda asosiy jihat, shubhasiz, O‘zbekistonning yangilangan tashqi siyosati. Binobarin, keyingi yillarda yangi O‘zbekiston dunyoga ochildi. Davlatlar, xalqaro tashkilotlar bilan do‘stlik, birodarlik aloqalarini mustahkamlab, o‘zaro manfaatli hamkorlikni kuchaytirmoqda.

O‘zaro ishonchga asoslangan do‘stlik va hamkorlik poydevori mustahkam bo‘ladi. Bu jarayonda tog‘-‘u dashtlar, dengiz-u okeanlar to‘siq bo‘la olmaydi. Ya‘ni bunda masofa ahmiyatsiz. Aloqalar barqaror rivojlanib, kengayib boraveradi.

O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi bugungi munosabatlarga xuddi shunday nisbat bersak, baholasak xato bo‘lmaydi. Chunki keyingi yillarda davlatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar yanada mustahkamlanib bormoqda. Siyosiy, savdo-iqtisodiy, sanoat, ishlab chiqarish, tibbiyot, ta‘lim, qishloq

xo‘jaligi, ijtimoiy-madaniy sohalarida tizimli aloqalar yo‘lga qo‘yildi. Muloqotlar amalda o‘z samarasini ko‘rsatmoqda.

Bunga Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modining mamlakatimizga davlat tashrifi davomida aytilgan fikrlar, ilgari surilgan tashabbuslar, erishilgan natijalar, imzolangan hujjatlar yaqqol misol bo‘ladi. Binobarin, tashrif muzokaralari O‘zbekiston va Hindistonning strategik sheriklik munosabatlarini yangi — aniq maqsadli hamda samarali bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Mehmonni kutib olishdan tortib, birgalikda o‘tkazilgan har bir tadbir jarayoni, o‘zaro hurmat va samimiylikka qurilgan muloqotlar shundan dalolat beradi.

Jumladan, Ko‘ksaroy qarorgohida O‘zbekiston — Hindiston strategik sheriklik munosabatlari va ko‘p qirrali hamkorligini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan oliy darajadagi muzokaralar avvalida Narendra Modi davlatimiz rahbarini Mustaqillik kuni bilan tabriklab, xalqimizga tinchlik, farovonlik va ravnaq tiladi.

Yetakchilar davlatlarimiz o‘rtasidagi faol va samarali muloqotlar turli darajalarda davom etayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

Ana shu faol va samarali hamkorlik evaziga tovar ayirboshlash hajmi o‘tgan yil yakunlari bo‘yicha ilk bor 1 milliard dollardan oshdi. So‘nggi yillarda qo‘shma korxonalar soni yetti barobar ko‘paydi. Ikki mamlakat o‘rtasida haftasiga 14 ta to‘g‘ridan to‘g‘ri parvoz amalga oshirilayotgani va hindistonliklar uchun 30 kunlik vizasiz tartib joriy etilgani turizm rivojiga katta hissa qo‘shmoqda.

Mamlakatimizda Hindistonning to‘rtta universiteti faoliyat yuritmoqda. Birgina shu jihatning o‘ziyoq ta‘lim sohasidagi hamkorlik rivoji, qamrovidan dalolat beradi, albatta.

Madaniy-gumanitar yo‘nalish bo‘yicha ham xuddi shunday fikr bildirish mumkin. Ayni paytda yurtimizda Lal Bahodur Shastri nomidagi Hind madaniyati markazi va Mahatma Gandhi nomidagi Hindshunoslik markazi samarali faoliyat yuritayotgani shunday deyshimizga to‘la asos yaratadi.

Qolaversa, jamiyatimizda tobora ommalashib borayotgan yoga va ushbu sohadaqi faol hamkorlik ham o‘zaro aloqalar rivojida muhim o‘rin tutmoqda. Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modi mamlakatimizga davlat tashrifining ikkinchi kunida dastlab O‘zbekiston yoga federatsiyasi tomonidan tashkil etilgan maxsus tadbirga tashrif buyurgani esa ushbu yo‘nalishdagi hamkorlik ahmiyatidan dalolat beradi.

Mazkur tashrif mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarni keng qamrovli strategik sheriklik darajasiga olib chiqishga zamin yaratishi nuqtayi nazaridan tarixiy ahamiyatga ega. Binobarin, muzokaralarda asosiy e‘tibor O‘zbekiston — Hindiston munosabatlari rivojini yangi bosqichga olib chiqish, barcha ustuvor yo‘nalishda amaliy hamkorlikni yanada kengaytirishga qaratildi.

Bu borada tomonlar siyosiy muloqot va almashinuvlarni barcha darajada, jumladan, parlamentlardagi do‘stlik guruhlari, Hukumatlararo komissiya va Ishbilarmonlar kengashi doirasida faollashtirishga kelishib oldi. Hamkorlikni samarali muvofiqlashtirishni ta‘minlash maqsadida tashqi siyosat idoralari rahbarlari darajasida muvofiqlashtiruvchi mexanizmi ta‘sis etish ko‘zda tutildi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni yanada kengaytirish muhokama markazidagi asosiy masalalardan biri bo‘ldi. Shunga mos ravishda tomonlar o‘zaro savdo hajmini bir necha barobar oshirish uchun katta salohiyat mavjudligini qayd etar ekan, 2030-yilga qadar tovar ayirboshlashni 5 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha zarur choralarini ko‘rishga kelishib oldi.

Muzokaralarda sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va yangi qo‘shma loyihalarini amalga oshirishga ham alohida e‘tibor qaratildi. Bu borada Hindistonning yetakchi kompaniyalari bilan energetika, elektrotexnika, metallurgiya, muhim minerallar, sog‘liqni saqlash, farmatsevtika,

qishloq xo‘jaligi va zargarlik sanoatida hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari yuqori baholandi.

Hududlararo hamkorlik jadal rivojlanmoqda. Andijon viloyati va Gujarat shtati, Farg‘ona viloyati va Haryana shtati, Samarqand viloyati va Agra o‘rtasida yaqin sheriklik aloqalari yo‘lga qo‘yilgani buning yorqin tasdig‘idir.

Tomonlar madaniy-gumanitar hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida madaniyat kunlari, konsertlar, ko‘rgazmalar, forumlar va kinofestivallarni muntazam o‘tkazish bo‘yicha kelishuvga erishgani ham xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasiz.

Muzokaralar davomida xalqaro va mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Yetakchilar xalqaro tuzilmalar doirasidagi samarali hamkorlikni e‘tirof etar ekan, tomonlar BMT, SHHT, BRIKS va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida ilgari surilayotgan tashabbuslarni o‘zaro qo‘llab-quvvatlash amaliyotini izchil davom ettirish muhimligini ta‘kidladi.

Uchrashuv yakunida vazirlik va idoralar rahbarlariga qo‘shma loyiha va dasturlarning faol ilgari surilishini ta‘minlash topshirildi. Har bir ustuvor yo‘nalish bo‘yicha aniq mexanizmlar, mas‘ul ijrochilar va amalga oshirish muddatini qamrab olgan tegishli “yo‘l xaritalari” ishlab chiqiladi.

Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modiga O‘zbekiston Respublikasining “Oliy Darajali Do‘stlik” ordeni topshirilgani, shubhasiz, tashrifning eng muhim voqealaridan biri bo‘ldi.

Shu munosabat bilan Ko‘ksaroyda o‘tgan tantanali tadbirida ta‘kidlanganidek, Hindistonning so‘nggi yillardagi jadal taraqqiyoti hamda xalqaro maydonda tobora ortib borayotgan nufuzi bevosita mamlakat yetakchisining samarali faoliyati bilan bog‘liq. Muvaffaqiyatli dastur va strategiyalar tufayli zamonaviy Hindiston barcha sohada olamshumul yutuqlarni qo‘lga kiritmoqda.

Davlatimiz rahbari nufuzli mukofotni topshirar ekan, bu qaror Hindiston Bosh vazirining ikki xalq o‘rtasidagi azaliy do‘stlik rishmalarini mustahkamlashga qo‘shayotgan beqiyos hisssasi uchun O‘zbekiston xalqi va davlatining yuksak ehtiromi ifodasi ekanini aytib o‘tdi.

Ushbu tarixiy tashrif va o‘tkazilgan sarmahsul muzokaralar natijasida do‘st mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalarni keng qamrovli strategik sheriklik darajasiga ko‘tarishga erishildi.

Birgalikdagi sa‘y-harakatlar natijasida siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy, investitsiya, transport va madaniy-gumanitar sohalaridagi aloqalar yangi sifat bosqichiga olib chiqilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Mazkur mukofot ikki xalq o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirishga ishonch bildirildi.

— Umumiy intilish va harakatlarimiz bilan ko‘p qirrali va uzoq muddatli aloqalarimiz kelgusida ham jadal rivojlanib borishga aminman, — dedi Prezidentimiz.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev va Hindiston Bosh vaziri Narendra Modi ishtirokida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar va boshqa yo‘nalishlardagi hamkorlikni yanada rivojlantirish hamda chuqurlashtirishga qaratilgan o‘n ikkita ikki tomonlama hujjat imzolandi.

Shundan so‘ng ommaviy axborot vositalari vakillari bilan o‘tkazilgan uchrashuvda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Hindiston Bosh vaziri Narendra Modi bo‘lib o‘tgan muzokaralar yakunlari yuzasidan fikr bildirdi.

Davlatimiz rahbari Hindiston Bosh vazirining O‘zbekistonga tarixiy tashrifi katta ahamiyatga ega ekanini alohida ta‘kidladi. Ushbu sarmahsul muzokaralar davlatlarimiz o‘rtasidagi samimiy do‘stlik, yuksak hurmat va o‘zaro ishonchning yana bir yorqin ifodasi bo‘lganini qayd etdi.

Ta‘kidlanganidek, Hindiston jahon miqyosida katta obro‘-e‘tibor va nufuzga ega bo‘lgan ishonchli va salohiyatli strategik sherikdir. Raqamli texnologiyalar, dasturiy ta‘minot va startaplar sohasida ulkan yutuqlarga erishmoqda. Shu sabab tashrifga jiddiy tayyorgarlik ko‘rildi. Salmoqli hujjatlar to‘plami, jumladan, qo‘shma bayonot qabul qilinib, qator hukumatlararo bitimlar imzolandi.

Tashrifning eng muhim va asosiy jihati, shubhasiz, olib borilgan samarali muzokaralar natijasida ikki tomonlama munosabatlar keng qamrovli strategik sheriklik bosqichiga ko‘tarilgani bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari so‘zining yakunida erishilgan kelishuvlar ijrosini to‘liq ta‘minlash maqsadida keng qamrovli “yo‘l xaritasi” ishlab chiqilishini bildirib, hindistonlik hamkasbi va barcha ishtirokchilarga minnatdorlik izhor etdi.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunlangach, yetakchilar Ko‘ksaroy qarorgohidagi Faxriy mehmonlar xiyobonida birgalikda daraxt ekdi.

Hindiston Bosh vaziri tashrif doirasida, shuningdek, poytaxtimizdagi tanqli hind davlat arbobi Lal Bahodur Shastri yodgorligi poyiga gul qo‘ydi. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzurida faoliyat yuritayotgan Mahatma Gandhi nomidagi hindshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi faoliyati bilan tanishdi.

Shu bilan Hindiston Bosh vaziri Narendra Modining mamlakatimizga davlat tashrifi yakunlandi.

Avazbek XUDOYQULOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

IKKI TOMONLAMA
ALOQALARNING DOLZARB
MASALALARI
MUHOKAMA QILINDI

30-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko bilan telefon orqali muloqoti bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari Belarus yetakchisini tavallud kuni bilan samimiy tabriklab, unga mustahkam sog‘liq, baxt-saodat va muvaffaqiyatlar, do‘st Belarus xalqini yaqinlashib kelayotgan Mustaqillik kuni bilan samimiy qutlab, bardavom taraqqiyot va farovonlik tiladi.

O‘z navbatida, Belarus Prezidenti O‘zbekiston yetakchisi va ko‘p millatli xalqini yaqinlashib kelayotgan Mustaqillik kuni bilan samimiy qutlab, bardavom taraqqiyot va farovonlik tiladi.

Joriy yil 8-9-iyul kunlari Prezidentimizning Minsk shahriga rasmiy tashrifida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston — Belarus strategik sheriklik munosabatlarini yanada

rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Samarali muloqot va almashinuvlar, shu jumladan, ikki mamlakat hududlari darajasida amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Yil boshidan buyon tovar ayirboshlash hajmi 28 foizga oshdi. Qishloq xo‘jaligi, mashinasozlik, farmatsevtika, elektrotexnika, yengil sanoat va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmog‘da.

Yetakchilar bo‘ljak ikki tomonlama uchrashuv va tadbirlar rejasini ham muhokama qildilar.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI
SHHTNING BISHKEK
SAMMITI TADBIRLARIDA
ISHTIROK ETADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning taklifiga binoan 31-avgust – 1-sentabr kunlari Shanxay hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlar rahbarlari kengashining navbatdagi yig‘ilishi hamda “SHHT plyus” formatidagi uchrashuvda ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Bishkek shahrida bo‘ladi.

Sammit kun tartibidan SHHT doirasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish va tashkilot faoliyatini takomillashtirishga oid dolzarb mavzular o‘rin olgan. Xalqaro va mintaqaviy hamkorlik masalalari ham muhokama qilinadi.

Yig‘ilish yakunida SHHTning 25 yilligiga bag‘ishlangan Bishkek deklaratsiyasi hamda xavfsizlik, iqtisodiyot, transport, ekologiya, sun‘iy intellekt, madaniy-gumanitar almashinuv va hamkorlikning boshqa ko‘plab

O‘ZA

Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib,
yangi hayot va kelajak yaratamiz!

TARAQQIYOT VA
FAROVONLIK YO‘LI

Yangi O‘zbekiston ildizlari

Siyosatshunos Qudratilla Rafiqovning “Yangi O‘zbekiston” gazetasida chop etilgan “Millat Shavkati” sarlavhali maqolasi jamoatchilikda katta qiziqish uyg‘otdi. Davlatimiz rahbarining Samarqandga hokimlik yillarida ko‘rsatgan shijoati va bunyodkorlik ishlari haqidagi fikrlarni o‘qir ekanman, bugungi jamiyatimizni tubdan yangilayotgan keng qamrovli islohotlarning ildizi o‘sha yillarga borib taqalishiga yana bir bor amin bo‘ldim.

Muallif “Yangi rahbar ilk ish kunini Samarqand xalqaro aeroportidagi holatini ko‘zdan kechirishdan boshladi; bir guruh faollar hamrohligida ko‘chama-ko‘cha, mahallama-mahalla piyoda aylanib, hududning haqiqiy ahvolini, odamlarning kundalik dardu tashvishlarini bevosita sinchiklab o‘rgandi”, deb qayd etadi. Bu — shunchaki kechagi kunni eslash emas. Bu bugungi bunyodkorlikning teran

tomiri o‘sha behalovat va mashaaqqatli kunlardan suv ichganini ta‘kidlashdir.

Chindan ham, Prezidentimizning tub islohotlari — bunyodkorlik jasorati kabinetdagi hisobotlardan emas, xalq bilan yuzma-yuz muloqotdan boshlangan. Mana shu haqiqat meni ham o‘ttiz yildan ortiq vaqt avvalgi xotralarimni qog‘ozga tushirishga undadi.

Davomi 3-betda

Stiv DEYNS: “O‘ZBEKISTONDAGI ISLOHOTLAR AQSH VA BOSHQA MAMLAKATLAR BILAN SAVDO, SARMOYA VA HAMKORLIK UCHUN ULKAN IMKONIYATLAR YARATMOQDA”

AQSH Senatidagi Markaziy Osiyo bo‘yicha
kokus hamraisi, senator Stiv Deyns O‘zbekiston
mustaqilligining 35 yilligi arafasida
“Dunyo” axborot agentligiga intervyu berdi

— Joriy yilda yangi O‘zbekistonda keng ko‘lamli islohotlar boshlanganiga 10 yil bo‘ldi. Siz ushbu davrdagi sa’y-harakatlarni qanday baholaysiz va mamlakatda yuz bergan qaysi o‘zgarishlarni muhim ahamiyatga ega deb hisob-laysiz?

— Prezident Shavkat Mirziyoyevning yetakchiligi tufayli so‘nggi o‘n yil ichida O‘zbekistonda qator muhim sohalar, xususan, iqtisodiyot, xalqaro hamkorlar bilan munosabatlar va aholi turmush darajasini yuksaltirish borasida ulkan natijalarga erishildi. Bu islohotlar O‘zbekistonni ochiq va faol davlat sifatida namoyon etib, AQSH va boshqa mamlakatlar bilan savdo, sarmoya va sheriklik munosabatlarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

— So‘nggi yillarda O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi munosabatlar sezilarli darajada faollashdi. Bu borada qaysi natijalarni muvaffaqiyatli deb hisoblaysiz va kelgusida yana qanday qo‘shma loyihalar ustuvor bo‘lishi mumkin?

— O‘zbekiston strategik jihatdan muhim mamlakat. Biz ham ikki tomonlama, ham “C5+1” formatidagi sheriklikni rivojlantirishda salmoqli yutuqlarga erishdik. Kelgusida AQSH va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi erkin savdoga to‘sqinlik qilayotgan Jekson-Venik tuzatishida ko‘zda tutilgan eskirgan savdo cheklovlarini bekor qilish AQSHning asosiy ustuvor vazifalaridan biri bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston o‘ta muhim mineral resurs-larga boy. Ushbu yo‘nalishdagi sheriklik ham tobora kengaymoqda. Bunday aloqalar iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish, yangi investitsiyalarni jalb etish va tegishli ta‘minot zanjirlarini mustahkamlash uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratadi.

— Prezident Shavkat Mirziyoyevning yetakchiligi tufayli so‘nggi o‘n yil ichida O‘zbekistonda qator muhim sohalar, xususan, iqtisodiyot, xalqaro hamkorlar bilan munosabatlar va aholi turmush darajasini yuksaltirish borasida ulkan natijalarga erishildi. Bu islohotlar O‘zbekistonni ochiq va faol davlat sifatida namoyon etib, AQSH va boshqa mamlakatlar bilan savdo, sarmoya va sheriklik munosabatlarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

Prezident Donald Trump tomonidan ilgari surilgan “Xalqaro tinchlik va farovonlik uchun Trump yo‘nalishi” (TRIPP) doirasidagi bitimning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi o‘ta muhim. Bu mintaqalarda o‘zaro bog‘liqlikni yaxshilash va O‘zbekiston uchun ishonchli savdo yo‘nalishlarini yaratishga xizmat qiladi.

— Islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri ochiq va ishonchli xalqaro hamkorlikka yo‘naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirishdan iborat. Sizningcha, bu yo‘nalishdagi o‘zaro aloqalar qay darajada rivojlanmoqda?

— Bu borada juda muvaffaqiyatli loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2025-yil noyabr oyida bo‘lib o‘tgan “C5+1” sammiti doirasida Amerika — O‘zbekiston biznes va sarmoya kengashi tashkil etilgani buning yorqin tasdig‘idir. Prezident Donald Trump, Prezident Shavkat Mirziyoyev, kengash hamraisari Said Mirziyoyeva va Serjio Gorning ushbu maqsadga erishishdagi yetakchiligi uchun minnatdorlik bildiramiz.

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro savdo aylanmasi 1 milliard dollardan oshdi. Investitsiya va hamkorlik aloqalari bundan keyin ham izchil o‘sishda davom etishiga ishonchim komil.

— Bugungi kunda O‘zbekiston barqaror rivojlanish, “yashil iqtisodiyot”, raqamli transformatsiya, fan, ta‘lim va inson kapitalini rivojlantirish sohasidagi tashabbuslarni faol ilgari surmoqda. Yaqin yillarda ushbu yo‘nalishlarda o‘zaro aloqalarni yanada kengaytirish uchun qanday imkoniyatlar mavjud?

— Texnologik va raqamli taraqqiyot davrida AQSH va O‘zbekistonning ilg‘or texnologiyalar sohasida yetakchi mavqeiini saqlab qolish uchun birgalikda ishlashi



juda muhim. Sun‘iy intellekt, kvant texnologiyalari, fotonika va energetikani rivojlantirish ana shunday ustuvor yo‘nalishlar jumlasidandir.

Ilmiy tadqiqotlarni rag‘batlantirish hamda malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun Amerika kompaniyalari va tadqiqot institutlarining O‘zbekistonning o‘sb borayotgan texnologiya sektori bilan aloqalarini yo‘lga qo‘yish asosiy vazifalardan biri bo‘lishi lozim. Bu, o‘z navbatida, innovatsiyalar va yuqori texnologiyali tarmoqlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

— So‘nggi o‘n yillik islohotlar davrida O‘zbekiston qator xalqaro va mintaqaviy loyihalar tashabbuskoriga aylandi. Sizningcha, amalga oshirilgan tashabbuslarning qaysi biri xalqaro hamjamiyat uchun muhim ahamiyatga ega?

— O‘zbekistonning xorijiy investitsiyalar va savdo uchun ochiq bo‘lishi mamlakatning o‘zi, Markaziy Osiyo mintaqasi va ittifoqchilari uchun

katta samara beradi. O‘zbekistonning erkin bozor tamoyillari va tabiiy resurslarni o‘zlashtirish yo‘lidagi islohotlari o‘z xalqi va xorijlik sheriklar uchun keng ko‘lamli imkoniyatlar yaratadi.

— Xalqaro ekspertlar yangi O‘zbekiston islohotlari tajribasini mintaqadagi keng ko‘lamli transformatsiyaning eng yaqqol namunalaridan biri sifatida e‘tirof etmoqda. Nima deb o‘ylaysiz, ushbu tajribaning qaysi jihatlari boshqa davlatlar uchun alohida qiziqish uyg‘otadi?

— O‘zbekistonning iqtisodiy yuksalishi, xorijiy sarmoyalar uchun ochilishi va xalqaro savdoni kengaytirish borasidagi sa’y-harakatlari so‘nggi yillardagi islohodarning eng muhim jihatlaridir.

Istiqbolda savdo-sotiqni va bozorlarga chiqish imkoniyatlarini yanada kengaytirish mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini kuchaytiradi va ayni paytda uning AQSH hamda xalqaro hamjamiyat uchun barqaror, mustaqil va ahamiyati tobora ortib borayotgan sherik sifatidagi rolini oshiradi.

— Yangi O‘zbekiston islohotlarining 10 yilligi munosabati bilan mamlakatimiz rahbariyati va xalqiga tilaklaringiz.

— So‘nggi ikki yil ichida Markaziy Osiyodagi barcha beshta davlatda, jumladan, O‘zbekistonda ham bo‘ldim. O‘zbek xalqining barqaror va farovon kelajak qurish yo‘lidagi intilishini hurmat qilaman.

Umumiy qadriyatlarimiz va manfaat-larimizga asoslangan o‘zaro sheriklik munosabatlarimiz bundan keyin ham kengayib, yanada rivojlanishini istayman. O‘zbekiston xalqiga tinchlik, farovonlik va yangi yutuqlar tilayman.

“Dunyo” AA

Sammit SHHTning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligini kengaytirishga ham xizmat qildi. Muloqotlar doirasida Arab davlatlari ligasi, UNESCO va BMT ESKATOsI bilan o‘zaro anglashuv memorandumlari imzolandi.

O‘ZBEKISTON VA SHHT: MUNOSABATLARNING YANGI UFQLARI SARI

31-avgust – 1-sentabr kunlari O‘zbekiston Prezidenti Bishkek shahrida
bo‘lib o‘tadigan Shanxay hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlari kengashining navbatdagi
majlisida ishtirok etadi.

O‘zbekiston uchun SHHT tadbirlarida ishtirok etish mamlakatimizning tashkilot faoliyatidagi faol o‘rni va uning asoschi davlatlaridan biri maqomini hisobga olgan holda alohida ahamiyatga ega.

Shanxay hamkorlik tashkiloti salmoqli rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi hamda bugun Yevroosiyo-da siyosiy muloqot va ko‘p tomonlama hamkorlik uchun eng yirik xalqaro maydonlardan biriga aylandi. Tashkilot tarkibining kengayishi, uning mexanizmlari rivojlanishi va hamkorlikning yangi yo‘nalishlari paydo bo‘lishi SHHTning mintaqaviy va xalqaro taraqqiyotning dolzarb masalalarini hal etishdagi o‘rni ortib borayotganidan dalolat beradi.

SHHT 2001-yil 15-iyun kuni Shanxay shahrida tashkil etilgan. Tashkilotni tuzish to‘g‘risidagi deklaratsiyani O‘zbekiston, Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston rahbarlari imzolagan. Keyinchalik SHHT tarkibi sezilarli darajada kengaydi. Hindiston va Pokiston tashkilotga 2017-yilda, Eron 2023-yilda, Belarus esa 2024-yilda a‘zo bo‘lib qo‘shildi.

Tashkilotning asosiy maqsadlari a‘zo davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonch, do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlash, ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, mintaqada tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni saqlash, shuningdek, siyosiy va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga ko‘maklashishdan iborat. Terrorizm, separatizm, ekstremizm, g‘iyohvandlik vositalari va qurol-yarog‘ning noqonuniy aylanishi hamda transmilliy jinoyatchilikning boshqa shakllariga birgalikda qarshi kurashishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

SHHTning muhim xususiyati — uning faoliyatiga asos qilib olingan o‘zaro hurmat, kelishilgan qarorlarni izlash va konsensus tamoyillaridir. Tashkilot boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlarga qarshi qaratilmagan, faoliyati xalqaro huquq va o‘zaro tushunish asosida qurilgan. SHHTning shartnomaviy-huquqiy bazasini xavfsizlik, iqtisodiy hamkorlik, uzoq muddatli yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro bog‘liqlikni rivojlantirish masalalarini qamrab oluvchi 1600 dan ortiq hujjat tashkil etadi.

Tashkilotning doimiy faoliyatini Pekindagi SHHT Kotibiyati ta‘minlaydi, Toshkentda joylashgan Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (MATT) esa a‘zo davlatlar vakolatli organlarining terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashdagi hamkorligini muvofiqlashtiradi. 2025-yilda MATTni xavfsizlik tahdidlari va xavf-xatarlariga qarshi kurashish bo‘yicha universal markazga aylantirish hamda Dushanbeda SHHTning Narkotikka qarshi

kurashish markazini tashkil etish to‘g‘risida bitimlar imzolandi.

SHHT rivojlanishining zamonaviy bosqichidagi muhim tamoyillardan biri tashkilotga a‘zo bo‘lmagan davlatlar, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar bilan hamkorlikni kengaytirishdir. Bu ko‘p tomonlama muloqotning kengroq tizimini shakllantirish va SHHTning xalqaro aloqalarini mustahkamlash imkonini beradi.

Parallel ravishda SHHTning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi izchil rivojlanmoqda. Tashkilot Kotibiyati tomonidan BMT, ASEAN, MDH, KHSHT, IHT, OSHICHK, BMTning Giyohvandlik moddalari va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi, Xalqaro Qizil Xoch qo‘mitasi, YEOIH, UNESCO va boshqa qator xalqaro tuzilmalar bilan o‘zaro anglashuv memorandumlari imzolangan. Bunday hamkorlik tajriba almashish va keng ko‘lamli masalalar bo‘yicha qo‘shma tashabbuslarni amalga oshirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi.

O‘zbekiston SHHT faoliyatida faol ishtirok etib kelmoqda. Mamlakatimiz 2003-2004, 2009-2010, 2015-2016 va 2021-2022-yillarda unga raislik qildi.

Tashkilot tarixida 2016-yilgi Toshkent sammiti alohida o‘rin tutadi. Unda erishilgan kelishuvlar 2017-yilda Hindiston va Pokistonga SHHTga a‘zo davlat maqomini berish uchun sharoit yaratdi.

2017-yildan boshlab O‘zbekiston SHHT doirasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha tashabbuskorlik yo‘liga o‘tdi. 2017-2025-yillarda O‘zbekiston Prezidenti tomonidan siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-logistika, innovatsiya va boshqa sohalarda 118 ta tashabbus ilgari surildi.

“ 25 yilda Shanxay hamkorlik tashkiloti oltita davlat birlashmasidan tortib, ishtirokchilari tarkibi kengaygan va tarmoqlangan hamkorlik tizimiga ega yirik xalqaro tashkilotgacha bo‘lgan salmoqli rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Bugun u katta demografik va iqtisodiy salohiyatga ega davlatlarni birlashtiradi hamda ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega.



Shukuh

Ilhom SUVONOV,
Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar instituti
ilmiy kotibi, falsafa fanlari doktori

Yangi Toshkentda mustaqilligimizning 35 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan tantanali bayram tadbiri qalbimizni o‘zgacha g‘urur va shukronaga to‘ldirdi. Prezidentimiz istiqlolning qadr-qimmatini hamda xalqimiz bosib o‘tgan mashaqqatli va sharaffi yo‘l haqida to‘xtalib, bugungi yutuqlarimizning asosiy omili yurtimizdagi tinchlik va hamjihatlik ekanini ta‘kidladi.

YUTUQLARIMIZNING ASOSIY OMILI TINCHLIK VA XOTIRJAMLIK



Ildizi 3000-yillik davlatchilik an‘analari va qadimiy sivilizatsiyaga borib taqaluvchi mustaqillik asrlar davomida kutilgan ulug‘

ne‘matdir. Aynan istiqlol tufayli milliy g‘ururimiz, ona tilimiz va muqaddas qadriyatlarimiz o‘zimizga qaytdi. Bayram



tadbirda ozodlik yo‘lida jon fido qilgan jadic bobolarimiz va Birinchi Prezidentimiz xotirasiga yuksak ehtirom ko‘rsatilgani ham barchamizning ko‘nglimizni tog‘dek ko‘tardi.

So‘nggi yillardagi islohotlar zamirida “Inson qadri uchun” degan ezigutamoyilmujassam. Yillar davomida xalqimizni qiynab kelgan majburiy mehnat, paxta yakkahokimligi va propiska kabi og‘ir muammolar nihoyat tarixda qoldi. Odamlar qalbidagi ertangi kunga qat‘iy ishonch uyg‘ondi. Qo‘rquv va hadik o‘rnini xotirjamlik egalladi. Iqtisodiyotimiz eshiklarining dunyoga ochilgani, chegara muammolariga barham obergerani va qo‘shni davlatlar bilan do‘stona aloqalar o‘rnatilgani yurtimiz nufuzini keskin oshirmoqda. Mamlakatimiz Iqtisodiy erkinlik indeksida 80 pog‘ona yuqorilgani hamda xorij sarmoyasi miqdori 40-50 milliard dollarga yetgani Vatanimiz tobora yuksalayotganining amaldagi isbotidir.

Bugun O‘zbekistonning SHHTdagi o‘rni ko‘p tomonlama muloqotda ishtirok etish doirasidan chetga chiqadi. Respublika hamkorlikning yangi yo‘nalishlarining faol tashabbuskorlaridan biri sifatida ularning amaliy bajarilishi va yanada rivojlanishini ta‘minlashga intilmoqda.

Zamonaviy kun tartibida iqtisodiy hamkorlik, transport bog‘liqligi va samarali transport yo‘laklarini rivojlantirish masalalari alohida o‘rin tutadi. 2022-yilda O‘zaro bog‘liqlikni rivojlantirish va samarali transport yo‘laklarini yaratish bo‘yicha konsepsiya qabul qilindi. Bu tashkilot davlatlari o‘rtasidagi logistika hamkorligining ortib borayotgan ahamiyatini aks ettiradi.

Keyingi muhim bosqich SHHT davlat rahbarlari kengashining yubiley sammiti bo‘lib, u 2026-yil 31-avgust — 1-sentabr kunlari Bishkekda “SHHTning 25 yilligi: birgalikda transport tinchlik, taraqqiyot va farovonlik sari” shiori ostida bo‘lib o‘tadi. Sammitning yubiley formati tashkilot faoliyatining kelgusi ustuvor yo‘nalishlarini muhokama qilish, ko‘p tomonlama hamkorlikni mustahkamlash va qo‘shma sa’y-harakatlarning yangi yo‘nalishlarini belgilashda alohida ahamiyat kasb etadi.

25 yilda Shanxay hamkorlik tashkiloti olitda davlat birlashmasidan tortib, ishtirokchilari tarkibi kengaygan va tarmoqlangan hamkorlik tizimiga ega yirik xalqaro tashkilotgacha bo‘lgan salmoqli rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Bugun u katta demografik va iqtisodiy salohiyatga ega davlatlarni birlashtiradi hamda ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega.

Hozirgi bosqichda O‘zbekiston amaliy va o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga e‘tibor qaratishni davom ettirmoqda. Iqtisodiy muloqot, transport bog‘liqligi, innovatsion hamkorlikni ilgari surish va xavfsizlik mexanizmlarini mustahkamlash SHHTni yanada rivojlantirish vazifalariga hamda respublikaning milliy manfaatlariga to‘liq mos keladi.

Bishkekda bo‘lib o‘tadigan SHHTning yubiley sammiti tashkilot faoliyatining kelgusi ustuvor yo‘nalishlarini belgilash uchun muhim maydonga aylanadi. O‘zbekiston uchun sammitda ishtirok etish konstruktiv kun tartibini ilgari surish, o‘zaro ishonchni mustahkamlash hamda mintaqaviy va mintaqalararo hamkorlik salohiyatini oshishga xizmat qiluvchi tashabbuslarni rivojlantirishga yangi imkoniyatlar ochadi.

“Dunyo” AA

Bu sa’y-harakatlar natijasi faqat qog‘ozda qolib ketmay, har bir oila va inson hayotida o‘z aksini topaypti. Kambag‘allik darajasi qisqa muddatda tushgani ortida 10 million yurtdoshimizning ro‘zg‘origa qut-baraka kirib, farovonligi oshgani sezildi.

Bugun ta‘lim, ilm-fan va tibbiyot sohalarida mutlaqo yangicha yondashuvlar joriy etilyapti. O‘qituvchilarning obro‘-e‘tibori ko‘tarilib, talabalar soni 1 million 600 mingga yetgani ta‘limdagi ulkan sakrash bo‘ldi. Yurtdoshlarimizning o‘rtacha umr ko‘rishi 75 yoshdan oshgani esa yuzlab yangi shifoxonalar qurilib, tibbiyot xalqqa yanada yaqinlashganining amaliy natijasidir.

Davlatimiz rahbari kelgusi o‘n yillikni milliy yuksalish davri sifatida e‘lon qildi va inson qadriini yanada yuksaltirishga xizmat qiladigan 7 ta muhim milliy dasturni hayotga tatbiq etish g‘oyasini ilgari surdi. Ta‘lim, yuqori texnologiyalar, ekologiya, adolat, mahalla hamda tashqi siyosat kabi yo‘nalishlarni o‘zida jamlagan bu dasturlar jamiyat taraqqiyotiga kuchli turtki berishi aniq.

Yoshlarimiz xalqaro maydonlarda, ayniqsa, Olimpiya o‘yinlari va fan olimpiadalarida shohsupalarga ko‘tarilayotgani hammamizga g‘urur bag‘ishlaydi. 10 million yigit-qizni raqamli industriya va kelajak kasblariga jalb etish borasidagi maqsadlar esa ertangi kunimizning mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Yangi O‘zbekiston ochiq, pragmatik va tinchlikparvar siyosati orqali xalqaro hamjamiyatda munosib o‘rin egalladi, bu jarayon davom etmoqda. Mamlakatimiz yetakchisi ta‘kidlaganidek, bugun kechagidan ko‘ra kuchlimiz, nasib qilsa, ertaga yanada qudratli bo‘lamiz. Davlat va xalq yelkama-yelka turib, yagona maqsad yo‘lida birlashsa, yengib bo‘lmas marraning o‘zi qolmaydi. Zaminimizdagi tinchlikning qadriga yetish va buyuk kelajakni birgalikda qurish — barchamizning muqaddas burchimiz.



Jumaqul QURBONOV,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
a‘zosi, siyosiy fanlar nomzodi,
mehnat faxriysi

➤ **Boshlanishi 1-betda**

Birinci uchrashuv: so‘nmagan hayrat

1992-1995-yillarda Qashqadaryo viloyati Muborak tumani hokimi lavozimida faoliyat yuritganman. Hokimlik o‘sha paytda endi shakllanayotgan yangi boshqaruv instituti edi: biz har kuni izlanib, tinimsiz mehnat bilan tajriba orttirib borardik. 1993-yili tumanidan saylangan Oliy Majlis deputati xalq ishonchini oqlamagan bois, tumanimiz va shahar aholisining tashabbusi bilan saylov yo‘li orqali deputatlikdan chaqirib olindi. Ana shunday kunlarning birida tumanimizga Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumani hokimi, Oliy Majlis deputati va mandat komissiyasi raisi Shavkat Mirziyoyev tashrif buyirdi.

Rasmiy suhbat boshlanishidan avval u kutilmagan savol berdi:

— Tumaningiz nega Muborak deb ataladi?

Bu savol meni quvontirdi. Tumanimiz nomi buyuk zot — Movarounnahrda birinchi bo‘lib hadis to‘plamini ta’lif etgan muhaddis Abu Abdurahmon Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy nomi bilan bog‘lanishini aytdim. 736-yili Marvda tavallud topgan bu alloma muhaddis, faqih va zohid sifatida butun islom olamida nom qozongan, asarlari asrlar osha qo‘ldan qo‘yilmay o‘qiladi. Onasi xorazmlik, otasi turkiy xonadondan bo‘lgan bu zotning ramziy qabri tumanimizda joylashgan va muborakliklar uchun tabarruk maskan. Jome masjidimiz faoliyat yuritayotganini, kelgusida bu maskanni obod ziyoratgohga aylantirish niyatimiz borligini ham so‘zlab berdim.

O‘zim yozgan “Buyuk hadissunnos Abdulloh ibn Muborak” nomli risolamni taqdim etdim. Shavkat Mirziyoyev kitobchani diqqat bilan varaqlab chiqdi-da:

— Ijod bilan ham shug‘ullanasizmi? — deb so‘radi.

“Qorako‘z” nomli hikoyalari to‘plamimni ko‘rsatdim. Suhbat davomida “Turkistonda milliy mustaqillik uchun siyosiy kurash (1917–1924-yillar)” mavzusida ilmiy ish qilayotganimni aytdim.

— Men ham bu ishga kelgunimga qadar institutda prorektor bo‘lib ishlaganman, — dedi. — Ilmiy rahbaringiz kim?

Ustozimning nomini aytdim.

— Rahbaringiz zo‘r ekan. Ishni tezlashtiring, muvaffaqiyatli yakunlab oling.

So‘ng xonadagi kitob kutubxona ko‘z tashlab, jilmaydi:

— Ijodga qiziqar ekansiz, shuning uchun javoningizda faqat eng sara adabiyotlar turishi bejiz emas ekan-da. Kitobga yoshlarni jalb qilish kerak. Tumanda nechta kutubxona bor, fondida qancha kitob mavjud?

Raqamlarni birma-bir aytib berdim. Keyin Shavkat Mirziyoyev tumaning tarixiy maskanlari bilan qiziqdi. Tumanimizdagi Ko‘hna shahar qishlog‘ida Amir Temur bobomizga aloqador Zanjirsaroy tarixiy obidasi borligini, bu borada arxeologlar ishlayotganini, yaqinda Arxeologiya instituti rahbari Temur Shirinov Fransiyadagi “Amir Temur” jamiyati asoschisi, professor Lyusyen Keren bilan obidaga kelib tanishgani so‘zlab berdim. Shavkat Mirziyoyev bu ma’lumotlarni zo‘r e’tibor bilan tingladi.

O‘sha suhbatda bir narsani aniq his qildim: bu inson uchun tuman deganda faqat raqamlar va hisobotlar emas, uning nomi, tarixi, kitobi, ziyoratgohi va odami bir butun holda ko‘rinardi. Bilimdonligi, talabchanligi va shiddatkorligi, eng muhimi, suhbatdoshining gapini bo‘lmay, fikrini oxirigacha diqqat bilan eshitishi meni o‘ziga tortdi. Tog‘dek salohati bu zotga chin dildan havas qilganim bugungidek esimda.

Birga tuman markazini piyoda aylandik. U kishi suv muammosini darhol sezdi va

Qashqadaryodan shaharga beton ariq orqali suv keltirishni taklif qildi. Shu zahoti Toshkentga — o‘sha vaqtdagi Melioratsiya va suv xo‘jaligi vazirligiga qo‘ng‘iroq qilib, kerakli mutaxassislarni tumanga yuborishni so‘radi.

Oradan ikki kun o‘tib, vazirlikdan mutaxassislar yetib keldi va ishni boshlab yubordi. Bugun oddiy tuyuladigan bu tezkorlik o‘sha yillar uchun haqiqiy yangilik, aytish mumkinki, kutilmagan jasorat edi.

Xayrlashar chog‘ida Shavkat Mirziyoyev menga tumanda islohotchi hokim bo‘lish, mahallalarni faollashtirish, odamlar hayotining haqiqiy holatini o‘rganish zarurligini uqtirdi. Mahalla raisligiga esa el hurmat qiladigan, ortidan odamlarni ergashtira oladigan obro‘li insonlarni saylash lozimligini maslahat berdi.

O‘sha maslahat meni ruhlantirdi: oradan ko‘p o‘tmay, ilmiy ishimni ham muvaffaqiyatli yakunladim. Yillar o‘tib esa aynan shu tamoyillar — mahallaga tayanish, odamlar bilan yuzma-yuz muloqot, muammoni boricha tan olish va yechimini topish, natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv bugungi yangi O‘zbekiston siyosatining ustuniga aylanganini ko‘rib, hayratlanmay ilojim yo‘q.

Vatan va xalqni ulug‘lash baxti

Oradan ko‘p o‘tmay, bir guruh hokimlar — o‘sha paytdagi Qashqadaryo viloyati hokimi Temir Xidirov, kamina, Buxoro viloyati va Toshkent shahridan ayrim tuman hokimlari — tajriba almashish maqsadida Fransiyaga xizmat safari bilan bordik.

Guruh tarkibida Mirzo Ulug‘bek tumani hokimi Shavkat Mirziyoyev ham bor edi. Iliq so‘rashgach, birinchi navbatda, suv masalasi qanday hal bo‘lganini so‘radi. Men tuman aholisi nomidan minnatdorlik bildirdim.

Fransiyada qator vazirliklar, ishblarmon va tadbirkorlar bilan uchrashuvlar tashkil etildi,



Barcha o‘zbek hojilari Prezidentimiz nomzodini yakdillik bilan qo‘llab-quvvatlab ovoz berdi. Nuroniy ota-onalarimizning xursandchilik ko‘z yoshiga qorishgan duolarini, qalblaridagi shukronani faxr bilan eslayman.

2026-yilda el-yurt koriga yaranagan fidoyi vatandoshlarimizdan 100 nafari “Prezident hojisi” sifatida muborak safarga yuborilgani xalqimizga ko‘rsatilayotgan yuksak ehtiromning yana bir yorqin namunasi bo‘ldi.

Shu ma’noda, “Prezident hojilari” tashabbusi, Islom sivilizatsiyasi markazi qurilishi va Imom Buxoriy majmuasining yangicha qiyofasi bir-biridan alohida voqealar emas. Bular — yangi O‘zbekistonda inson qadri, e’tiqod erkinligi, ajdodlar merosi va ma’rifat g‘oyasi

Tarix ipini tortsangiz, hayratlanarli silsila namoyon bo‘ladi. Abdulloh ibn Muborak Imom Buxoriy tavalludidan o‘n uch yil muqaddam vafot etgan — ular yuz ko‘rishmagan. Ammo manbalarda yozilishicha, Imom Buxoriy o‘n olti yoshidayoq Abdulloh ibn Muborak va Vaqi’ ibn Jarroh kitoblarini yod olgan edi. Demak, muhaddislar sultonining ilk ustozlaridan biri — kitob orqali yetib kelgan al-Marvaziy bobomizdir. Ustoz bo‘lish uchun bir xonada o‘tirish shart emas ekan: kitob bor joyda ustoz ham bor.

Mana shu silsilaning bugungi halqasi — 2026-yil 19-mart. O‘sha kuni Prezidentimiz tashabbusi bilan Samarqand viloyati Payariq tumanidagi Xartang qishlog‘ida qaytadan bunyod etilgan Imom Buxoriy majmuasi ochildi: o‘n to‘rtta moviy gumbaz, 75 metrli to‘rtta minora, innovatsion muzey, kuniga 65 minggacha ziyoratchini qabul qila oladigan qadamjo. Ertasi kuni — Ramazon hayiti arafasida bu yerda ilk bor hayit namozi o‘qildi. Prezidentimiz bu maskan “faqat ziyorat emas, ilm-ma’rifat, tarbiya va ibrat maskani bo‘lishi” kerakligini ta’kidlagan edi.

Biz, muborakliklar uchun bu voqeaning alohida ma’nosi bor. Tumanimizdagi al-Marvaziy bobomizning ramziy qabri ham, Samarqanddagi ulug‘vor majmuha ham bir silsilaning ikki halqasi. Ustoz va shogird, kitob va ziyorat, o‘tmish va bugun ana shu tariqa tutashadi. Ajdodlar merosiga ehtirom

“Yangi O‘zbekistonda kitob o‘qish madaniyati va kitobga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Kitobxonlik faqat ta’lim masalasi emas, balki millat kelajagi, xalqimizning ma’naviy qudrati va mamlakat raqobatbardoshligini ta’minlaydigan muhim omildir.”

uyg‘unlashayotganidan dalolat beruvchi yagona ma’naviy jarayonning ko‘rinishidir.

Sakkiz yil davomida bunyod etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi xalqimizning boy ma’naviy va ilmiy merosini chuqur o‘rganish hamda dunyoga keng targ‘ib qilish yo‘lidagi tarixiy qadam bo‘ldi. Yurtimiz azaldan buyuk allomalar, muhaddislar va mutafakkirlar yetishib chiqqan tabarruk zamin. Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy, Imom Buxoriy, Imom Temuriy, Imom Moturidiy, Bahouddin Naqshband, Burhoniddin Marg‘inoniy kabi ulug‘ zotlar qoldirgan boy ilmiy meros butun insoniyat ma’naviy taraqqiyotiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilgan.

Bugun ana shu merosni chuqur o‘rganish va keng targ‘ib qilish yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim ma’naviy ustunlaridan biriga aylanmoqda. “Prezident hojisi” maqomiga musharraf bo‘lganlarning muqaddas safar oldidan aynan shu markazga tashrif buyurib, boy ma’naviy merosimiz bilan yaqindan tanishgani ham ramziy ma’noga ega. Ishonch bilan aytish mumkinki, bu insonlar Vatan tinchligi, xalq farovonligi va yosh avlod kamolini ta’minlashda doimo kamarbasta bo‘lib qoladi. Zero, mehr-muruvvatning javobi sadoqat va fidoyilikdir.

Uzilmagan silsila

Imom Buxoriy qomuslar bosh tahririyati tomonidan 1991-yilda Toshkentda nashr etilgan “Hadis” to‘plamining so‘zboshisida qayd etilishicha, Movarounnahrda birinchi bo‘lib hadis to‘plami ta’lif etgan muhaddis Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziydir. Bu — olis o‘tmishda ma’naviyatimizga qo‘shilgan ulkan hissaning ilmiy e’tirofi.

deganimiz — mana shu zanjirni uzilishdan asrash demakdir.

Kitobga mehr — kelajakka ishonch

Yangi O‘zbekistonda kitob o‘qish madaniyati va kitobga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Kitobxonlik faqat ta’lim masalasi emas, balki millat kelajagi, xalqimizning ma’naviy qudrati va mamlakat raqobatbardoshligini ta’minlaydigan muhim omildir.

Bu haqda o‘qiganimda, har safar o‘sha olis suhbat yodinga tushadi. Oddiy bir tuman hokimining ishxonasidagi kitob javoniga e’tibor qaratib, “Kitobga yoshlarni jalb qilish kerak”, degan, kutubxonalardagi kitoblar sonigacha so‘ragan rahbar oradan yillar o‘tib bu vazifani butun bir mamlakat miqyosida davlat siyosati darajasiga ko‘tardi. Demak, bugungi milliy kitobxonlik harakatining ildizi ham o‘sha yillarda — oddiy bir xonadagi oddiy bir savolda ekan.

2017-yildan buyon o‘tkazib kelinayotgan “Yosh kitobxon” tanlovi millionlab yoshlarni mutolaaga yaqinlashtirdi. “Yosh kitobxon oila” tanlovi esa mutolaa muhitini har bir xonadonga olib kirmoqda.

Joriy yil boshida qabul qilingan qaror asosida eng faol kitobxonalarni qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimi yo‘lga qo‘yildi. Yaqinda “Yosh kitobxon” tanlovining navbatdagi respublika bosqichi yakunlandi: unda mamlakatimizning barcha hududidan bilimdon va zukko 42 nafar yosh o‘z iqtidorini namoyon etdi. G‘olib bo‘lgan uch nafari esa Prezident sovg‘asi — zamonaviy avtomobillar bilan taqdirlandi.

Davlatimiz rahbari g‘olib yoshlarni, ularning ustozlari va ota-onalarini samimiy tabriklab, iqtidorli, izlanuvchan va bilimga chanoq yoshlar — yangi O‘zbekistonning porloq kelajagi ekanini ta’kidladi. Zero, kitobga qo‘yilgan mehr kelajakka ishonch va e’tiqodning suyanch tog‘idir.

So‘z va ma’rifat kunlari

Istiqlolning dastlabki yillari edi. Muborak tumanida ma’naviy-ma’rifiy ishlarga alohida e’tibor qaratardik. O‘sha kezlari birgina nom tanlash ham biz uchun tarixga qaytish edi: xo‘jaliklarimiz “Turkiston”, “Xorazmiy”, “Buxoriy”, “Amir Temur”, “Alisher Navoiy”, “Bo‘ston”, “Guliston” deb atala boshladi. Har bir nom — o‘zligimizga qaytishning kichik bir qadami edi.

“Turkiston” gazetasi kunlarini o‘tkazishni tashkil qildik. O‘sha paytda tadbir doirasida tumanimizga O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov, “Turkiston” gazetasi bosh muharriri Jabbor Razzoqov, Salim Ashur, Sirojiddin Rauf va bir guruh jurnalistlar, shuningdek, O‘zbekiston xalq artisti Zikri Muhammadjonov hamda Erkin Komilov boshchiligidagi san’atkorlar keldi. Mehmonlarni tuman chegarasida kutib oldik, neft-gaz sanoati korxonalarida, ta’lim maskanlarida, chorvadorlar va dehqonlar huzurida uchrashuvlar o‘tkazildi, she’rlar o‘qildi, san’atkorlar o‘z ijodini namoyish etdi.

Oradan ko‘p o‘tmay, tumanimizda “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi kunlari ham o‘tkazildi: gazetaning bosh muharriri Ahmadjon Meliboyev boshchiligidagi jurnalistlar, zahmatkash tarixchi olim Begali Qosimov va boshqa ijodkorlar mehmon bo‘ldi.



Mehmonlarni qadimiy Sardoba obidasi va Zanjirsaroy qal’asi xarobalariga olib bordik. Bu maskanlar haqidagi rivoyatlardan so‘zlab berdik.

O‘sha kunlari biz oddiy bir haqiqatga amin bo‘ldik: odamlar nonga qanchalik muhtoj bo‘lsa, so‘zga va o‘z tarixiga ham shunchalik tashna ekan.

“Tuproq ostidagi shahar”

Zanjirsaroy haqidagi izlanishlarim ancha olis yillarga borib taqaladi. 1977-1978-yillarda “Qashqadaryo haqiqati” gazetasi madaniyat bo‘limida adabiy xodim bo‘lib ishlagan kezlarni tarixiy manbalarga suyanib, bu qal’a haqida “Tuproq ostidagi shahar” deb

nomlangan turkum maqolalar yoza boshlagan edim. Ammo qal’aning Amir Temur bobomiz va Saroymulkxonimga aloqadorligi birinchi maqoladan keyinoq shov-shuv ko‘tardi: ayrim tazyiqlar tufayli izlanishni to‘xtatishga majbur bo‘ldim. O‘sha zamonda Sohobqiron nomini baland ovozda tilga olishning o‘zi jur’at talab qilardi.

Mustaqillik bu to’siqlarni bir zumda olib tashladi. Marhum ustozim, tarixchi olim Poyon Ravshanov bilan hamkorlikda ishni qaytadan boshladik. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi uch sonida “Sohobqiron tug‘ilgan joy yoxud Zanjirsaroy qissasi” maqolamiz bosildi. 1992-yilda esa shu nomdagi kitobimiz Toshkentda nashr etildi.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, Muborakdan 10-12 chaqirim naridagi Zanjirsaroy Chig‘atoy ulusi hukmdori Qozonxonning oliy qarorgohi bo‘lgan. 1346-yilda Amir Qazag‘on Qozonxon ustidan g‘alaba qozongach, poytaxt Zanjirsaroydan Buxoroga ko‘chirilgan. Keyinchalik Sohobqiron Amir Temurning o‘zi bu makonni xush ko‘rib, yurishlardan so‘ng qish faslini bir necha bor shu yerda o‘tkazgan. Demak, Zanjirsaroy shunchaki xarobazor emas, u Movarounnahr tarixining burilish nuqtalaridan biriga shohid bo‘lgan makondir.

Yillar davomida bu makonga dunyoga tanilgan olimlar keldi. Fransiyadagi “Amir Temur” jamiyati asoschisi professor Lyusyen Keren, shu jamiyatning hozirgi rahbari, Samarqand shahrining faxriy fuqarosi professor Frederik Bressand xonim, arxitektura professori Kyara Silvi Antonini, amerikalik mashhur olimama Beatris Mans shular jumlasidan.

2024-yilda Rossiyaning Penza shahrida o‘tkazilgan yirik xalqaro konferensiyada Zanjirsaroy haqida arxeolog olim, tarix fanlari doktori, professor Abdusobir Raimqulov ma’ruza qildi. Konferensiya materiallari Qozon shahrida nashr etiladigan nufuzli “Arxeologiya Yevraziyskix stepey” jurnalida e’lon qilindi. Uni o‘nlab mamlakatdagi mutaxassislar mutolaa qiladi.

Zanjirsaroy nomi millat she’riyatiga ham kirib keldi: Toshkentda Amir Temur bobomiz haykali ochildan tantanada Abdulla Oripov o‘qigan she’rda “Zanjirsaroy o‘chin olgan zot” degan misra yangradi. Muborak tumanining shohko‘chasi Zanjirsaroy nomi bilan yuritila boshladi.

Ming shukrki, ona yurtimiz tarixiga oid bunday izlanishlar bugun xalqimiz hukmiga bemaol havola etilmogda, yurtimiz va xorijiy olimlar bu tadqiqotlarga munosabat bildirmoqda. Bu — mustaqilligimiz sharofigi.

Xulosa

Ortga nazar tashlar ekanman, bir xulosaga kelaman: yangi O‘zbekiston — inson qadrini ulug‘lash, xalq dardiga sherik bo‘lish, jamiyatda adolat va teng imkoniyatlar muhitini yaratish yo‘lidagi ulkan buyruqkorliklar nomidir.

Bugun har birimizdan chetdan kuzatuvchi bo‘lib qolish emas, daxldor, faol va mas’ul fuqaro bo‘lib yashash talab etiladi.

Nuroniylarimizning duosi va tajribasi, yoshlarimizning g‘ayrati va tashabbusi, ziyolilarimizning fikri va ma’rifati, rahbarlarning mas’uliyati, xalqimizning birligi — yangi O‘zbekiston binosi mana shu ustunlar ustiga qurilmoqda. Har birimiz bu buyruqkorlikka o‘z hissamizni qo‘shishimiz lozim. O‘tiz yildan ortiq vaqt oldin bir tuman markazidagi suv muammosini bartaraf etishdan, tuman nomining ma’nosini so‘rashdan, bir javondagi kitoblarga e’tibor qaratishdan boshlangan yo‘l bugun butun bir mamlakatning taraqqiyot strategiyasiga aylandi. Mana shu — millat Shavkatlari. Bu sharaf va shavkatni har bir O‘zbekiston fuqarosi qalbida asrab-avaylab, kelajak avlodlarga yetkazishi — oliy burch.

Bir paytlar iqtisodiy imkoniyatlarimiz ko‘proq yer va tabiiy boyliklar bilan o‘lchangan bo‘lsa, bugun ulardan qanday foydalanilayotgani bilan belgilanmoqda.



Tahlil

Ba‘zan tinchlikning qadrini anglash uchun o‘z hayotimizdan bir muddat chetga chiqib, dunyoda kechayotgan voqealarga nazar tashlashning o‘zi kifoya. Bugun kurrai zaminning qaysidir burchagida tong otishini xotirjamlik bilan kutayotgan, ertasi qanday bo‘lishini bilmay, har bir daqiqani xavotir bilan o‘tkazayotgan insonlar bor. Bir dasturxon atrofida oilasi bilan nonushta qilish, farzandini maktabga kuzatish, ishga borib, kechqurun uyiga salomat qaytish biz uchun kundalik hayotning oddiy bir qismi. Ammo dunyoning ayrim nuqtalarida ana shu oddiylarning o‘zi orzuga aylangan.



yuz.uz_news



yuz.uz_news

KECHA ORZU EDI, BUGUN – VOQELIK

Ishlab chiqarish va inson hayotida aks etayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar

To‘g‘ri, bu voqealar bizdan minglab chaqirim uzoqda. Lekin bugungi dunyoda masofalar avvalgidek uzoq emas. Axborot bir zumda yetib boradi, bir hududdagi beqarorlik ta‘sirini boshqa mintaqalarda ham seziladi. Bir zamonda, bir sayyorada, taqdirlari bir-biriga tobora yaqinlashayotgan insonlar o‘laroq yashar ekanimiz, yurtimizdagi osoyishta tonglar, xotirjam mehnat, dasturxonimizdagi rizq qadrini yana bir bor his etmay ilojimiz yo‘q. Tinchlik bor joyda inson ertangi kuni haqida o‘ylaydi. Reja qiladi. Farzandining kelajagini tasavvur qiladi. Bino quradi, korxona ochadi, bilim oladi. Shu ma‘noda, taraqqiyotning eng birinchi sharti ham tinchlik va barqarorlikdir.

Bugun yurtimizda ana shu osoyishta hayotning qadri yanada teranroq his etilayotgan palla. Mustaqilligimizning 35-yillik shodiyonasi nafasi har bir hududda sezilmoqda. 25-avgust kuni Prezidentimiz ishtirokida mamlakatimizning barcha hududlarida yangi obyektlarni ishga tushirish marosimi ham ana shu jarayonning yana bir yorqin ko‘rinishi bo‘ldi. Sirdaryoda — ulkan energetika quvvatlari, Qorag‘alpog‘istonda — shamoldan elektr oladigan zamonaviy stansiya va energiya saqlash tizimi, Andijon, Namangan va Jizzaxda — to‘qimachilik, trikotaj va gilam ishlab chiqaradigan korxonalar, Samarqand va Toshkentda — yangi metallurgiya quvvatlari, Yangi Toshkentda — ilm va ta‘lim uchun zamonaviy majmualar.

Bir qarashda bular mamlakatning turli nuqtalarida ishga tushayotgan alohida-alohida loyihalar. Ammo bir oz sinchiklab qarasangiz, ular ortida yagona manzara ko‘rinadi. O‘zbekiston iqtisodiyoti o‘zgariyapti. Bu o‘zgarishni birgina raqam bilan ifodalash qiyin, chunki gap iqtisodiyot hajmining o‘shishidagina emas. Gap iqtisodiyotning mazmuni o‘zgarayotganida.

Bir paytlar iqtisodiy imkoniyatlarimiz ko‘proq yer va tabiiy boyliklar bilan o‘lchangan bo‘lsa, bugun ulardan qanday foydalanilayotgani bilan belgilanmoqda. Mavjud imkoniyatlarga inson aqli, mehnati va zamonaviy texnologiya qancha hissa qo‘sha olishi tobora muhim ahamiyat kasb etyapti. Paxta daladan uzilgan joyda o‘z iqtisodiy quvvatini to‘xtatib qolmaydi — undan yangi mahsulot, yangi ish o‘rni, yangi bozorlar sari yo‘l ochiladi. Yer qa‘ridan olingan boylik ham sanoat zanjirida yangi bosqichlarni harakatga keltirib, yurt taraqqiyotiga xizmat qiladi.



“

So‘nggi o‘n yilda mamlakatimiz iqtisodiyoti hajmi 2,5 barobardan ziyod oshdi. Iqtisodiyot tarmoqlariga 160 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilindi. Umumiy qiymati 76 milliard dollar bo‘lgan 2163 ta yirik sanoat loyihasi ishga tushirildi. Qariyb 6 million aholi doimiy ish o‘rniga ega bo‘ldi.



Ilhomjon ZIYOVIDDINOV,
“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan qishloq xo‘jaligi xodimi” faxriy unvoni sohibi, “Navbahor namunasi” ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi boshlig‘i

Yerga urug‘ qadaysiz, mehnat qilasiz — rizq unadi. Ana shu rizq oila farovonligi, farzandlar kamoli, qolaversa, el dasturxoniga kirib boronaning o‘zi dehqonning ruhlantiradi, qilayotgan ishiga kuch beradi. Ammo inson qilgan mehnatlari uchun e‘tirof etilib, yuksak davlat mukofoti bilan taqdirlansa, nafaqat quvonchdan, balki faxr, minnatdorlikdan boshi osmonga yetadi.

Bugun ana shu hislarni tuyayman. “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan qishloq xo‘jaligi xodimi” faxriy unvoni bilan taqdirlanganim hamda Prezidentimizning shaxsan o‘zi medalini ko‘ksimga taqqani hayotimning ayni lahzalaridagi eng sururli voqeasiga aylandi. Oddiy qishloq odami, bir fermer uchun bu nihoyatda yuksak mukofot. Hali ham ishonmayapman.

Xayolimdan faqat o‘z mehnatini, qiyinchiliklarim emas, balki tong saharda dalaga otlangan har bir dehqonning zahmati, har qarich yerni e‘zozlab ishlagan fermerning sabri, yer bilan tillashayotgan mehnatkashlar o‘tyapti. Shunday insonlar qatorida ekanim va ular kabi mehnatim qadrlanib, e‘tirof etilganim men uchun katta sharaf. Bu nafaqat menga, balki duogo‘y ota-onam, oila a‘zolarim, yaqinlarim, hududimiz ahliga berilgan mukofotdir.

Umrimning yarmidan ko‘pi dala maydonlarida o‘tdi. Bolaligimizdan yer rizq-ro‘z manbai, halol mehnat qilsang, u seni

boqadi degan qadriyat bilan yashaganmiz. Tirikchiligimizning asosiy manbai yer bo‘lgan. Keyin ham faoliyatimni shu yer bilan bog‘ladim. Boshqa ish yoki kasb yo‘qligidan emas, qiziqishim sabab agronomlikni tanladim, shu sohada oliy ma‘lumotli bo‘ldim, uzoq yillar o‘z yo‘nalishimda ishladim. Tajriba orttirgach, 2007-yilda fermer xo‘jaligi tashkil qildim. Asosiy daromadimiz paxta va g‘alladan edi. Maqsadimiz ham shu ekinlardan ko‘proq hosil olib, belgilangan rejanı bajarish bo‘lgan. U vaqlari paxta va g‘alladan gektaridan 30 sentner hosil mo‘ljali bo‘lardı. Shuni ham amal-taqal qilib bajarardik. Chunki imkoniyatlarimiz cheklangan edi.

To‘g‘ri, o‘sha vaqtlarda fermerning obro‘si yaxshi, chetdan qaraganda, imkoniyatlari kengdek tuyulardi. Ammo hozirgacha fermerlik qilayotgan odamlar yaxshi biladi, bundan o‘n yil oldingi faoliyatimiz bilan hozirgisi orasida yer bilan osmoncha farq bor. Avvallari pulingiz bo‘lsa ham mineral o‘g‘itning ko‘lmagan,

yoqilg‘i bo‘lmagan, ularni olish juda qiyin bo‘lgan. Hammasi bo‘lsa, pul yo‘q. To‘lov tizimi umuman izdan chiqqan — mahsulot sotasiz, lekin pulini yillar davomida ololmaysiz. Natijada boshqa tashkilotlardan qarzdorlik, uning penyalari to‘planib qolardi. Fermerning kosasi oqarishi qiyin edi.

Fermerlik shunday — faqat mehnatdan iborat ekan deganmiz oxiri. Tinimsiz mehnat qildik, lekin shunda ham paxta hosili 30 sentnerdan oshmasdi. Hosil bundan yuqoriroq bo‘lishini tasavvur qilolmasdik, aslida. Chunki esimizni taniganimizdan buyon yurtimizda paxta hosildorligi shunday bo‘lib kelganini xotirli bilarдик. Dehqon ham, fermer ham daladan chiqmasdi. Koshki, shuncha mehnatga yarasha daromadimiz qo‘limizga tegsa. Hosilni davlatga topshirganimizdan keyin mablag‘ning yamidan ko‘pi ekin ekish mavsumida berilgan kredit to‘loviga ushlab qolinarđi. Qolgan qismi yil oxirigacha berilsa berilardi, bo‘lmasa yo‘q.

Shunda ham nolimasdik, “plan”ni bajarganimizdan quvonib yuraverardik. Xuddi katta majburiyatimizni bajargandek, yelkamizdan tog‘ ag‘darilardi. Nima bo‘lsa ham ortga chekinmadik, mehnat qilishda davom

etdik. Nihoyat yayrab ishlaydigan hozirgi kunlarga yetdik.

Bugun amin bo‘lamanki, har qaysi sohada natijadorlik ham, rivojlanish ham, fidoyilik ham, avvalo, iqtisodiy mustaqillikka borib taqaladi. O‘z daromadiga o‘zi egalik qilgan insongina ko‘proq mehnat qiladi, itniladi. Daromadini chamalay oladi, uni yanada oshirishga harakat qiladi. Bundan o‘n yil oldin yurtimizda boshlangan islohotlar barcha sohalar kabi qishloq xo‘jaligida ham tub burilish yasadi. Avvalo, to‘lov tizimi tartibga solindi. Dehqon va fermer daromadiga o‘zi egalik qila boshladi. Sohaga ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar olib kirdi. Natijada yangi navlar yaratildi, agrotadbirlar eng ilg‘or texnologiyalar asosida bajarildi. Dehqon va fermerlarga yangidan yangi imtiyozlar, rag‘batlar berilyapti. Bular haqida juda uzoq gapirish mumkin. Lekin bu islohotlar amalda bir narsani isbotladi — natijaga faqat tinimsiz va qora mehnat bilan erishilmaydi, o‘sha mehnatni to‘g‘ri va samarali yo‘nalitiradigan bilim zarur.

Bugun dehqon va fermerlar agrar tadbirkorga aylanib borayotgani boisi shunda. Endi fermerlik xalqaro talablarga javob beradigan sifatli, hosildor mahsulot yetishtirish, jarayonda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, yangi navlarni qo‘rqmasdan sinovdan o‘tkazish, bir nechta tarmoqni birlashtirishga asoslangan katta bir tizimga aylandi.

Keyingi yillarda paxtadan 70-90 sentnergacha hosil olyapmiz, g‘alla hosildorligi ham ancha yuqori. Fermer xo‘jaligimiz ko‘p tarmoqli bo‘lib, 240 dan ortiq asalari uyasi, 30 dan ortiq chorva bor. Bu yiliga qo‘shimcha 2,5 tonnadan ziyod asal, 2,5-3 tonna go’sht mahsulotlari yetishtirilmag‘ degani. Ishlar eng zamonaviy texnika vositalari yordamida bajariladi.

Hozir dunyodagi siyosiy vaziyat og‘ir. Oziq-ovqat yetishtirish hech bir davlat uchun oson bo‘lmayapti. Shunday vaqtda yurtimizda har bir soha kabi qishloq xo‘jaligida ham

faqat kirib kelgan mablag‘ bo‘lib qolmay, yangi texnologiya, yangi ishlab chiqarish, yangi tajriba, yangi bozor va yangi imkoniyatlar degani. Ishga tushirilayotgan loyihalar shu katta jarayonning davomi. Umumiy qiymati qariyb 50 trillion so‘m bo‘lgan 72 ta yirik sanoat va servis loyihasi hamda 91 ta ijtimoiy soha obyekti ishga tushirilmog‘da. 15 mingta yangi ish o‘rni yaratildi. Byudjetga yiliga qo‘shimcha 1 trillion so‘m tushum tushishi kutilmog‘da.

Raqamlarning ortiga qarasak, ularning mazmuni boshqacha ko‘rinadi. 15 ming insonning mehnatiga ehtiyoj paydo bo‘lishi, minglab oilalar daromadi va turmush rejalariga ta‘sir qiladigan o‘zgarish. Byudjetga tushadigan qo‘shimcha mablag‘ esa yana yangi maktab, yo‘l, shifoxona yoki ijtimoiy loyiha uchun imkoniyat bo‘ladi.

Shu bois, bugungi loyihalarini faqat investitsiya va eksport ko‘rsatkichlari bilan o‘lchash to‘g‘ri emas. Chunki iqtisodiyotdagi

har qanday harakatning yakuniy manzili inson hayotidir. Korxonaning quvvati qancha bo‘lishidan qat‘i nazar, uning eng katta natijasi qancha insonga munosib mehnat va daromad imkonini berganida ko‘rinadi. Universitetda shakllanayotgan tafakkur mamlakat kelajagiga ta‘sir qiladi. Shifoxonaning binolari emas, unda saqlab qolingan inson hayoti uning haqiqiy qiymatini belgilaydi.

Joriy o‘quv yili arafasida foydalanishga topshirilayotgan ijtimoiy obyektlarga qarasak, bu fikr yanada oydinlashadi. Yangi Toshkentda 10 gektar maydonda barpo etilgan yangi O‘zbekiston universiteti majmuasida 7 ming talaba tahsil olishi uchun sharoit yaratilgan. 30 ming kvadrat metr maydonni egallagan yangi Milliy kutubxona bir vaqtning o‘zida 1,5 ming kitobxonga xizmat ko‘rsatish, 200 mingdan ortiq kitobni jamlash imkoniyatiga ega. Qarshidagi Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Farg‘onadagi zamonaviy tibbiyot muassasasi va boshqa ijtimoiy obyektlar ham bugun qurilayotgan bo‘lsa-da, aslida, ertangi kun uchun zamin yaratilayotganini ko‘rsatadi.

Zavod bugun mahsulot beradi. Bilim esa ertaga mamlakatni o‘zgartiradi. Shifoxona bugun bemorga, sog‘lom inson esa ertaga jamiyatga xizmat qiladi. Shuning uchun yangi O‘zbekiston haqida so‘z ketganda, uning eng katta boyligini faqat qurilayotgan binolardan emas, ana shu binolarda ta‘lim olayotgan, mehnat qilayotgan, davolanayotgan va o‘z kelajagini qurayotgan insonlardan izlash kerak.

Prezidentimiz so‘nggi o‘n yilni yangi Uyg‘onish davri — Uchinchi Renessans paydoverini qurish bosqichi sifatida baholadi. Bu g‘oyaning mazmunini ham bugungi o‘zgarishlardan anglash mumkin. Renessans faqat kitoblar va kashfiyotlardan boshlanmaydi. Uning zaminida iqtisodiy imkoniyat, sifatlı ta‘lim, ilm-fan, texnologiya va inson qadriga tayanadigan muhit bo‘ladi. Bugun ana shu zamin bosqichma-bosqich yaratilmoqda.

Shuning uchun 25-avgust kuni ramziy tugmaning bosilishi bilan ishga tushirilgan obyektlarni bir kunlik tadbir doirasidagina ko‘rish kamlik qiladi. Ular mamlakatning turli nuqtalarida bir vaqtning o‘zida harakatga kelayotgan katta jarayon belgilaridir. Bu jarayonda investorming sarmoyasi ham, muhandisning bilimi ham, quruvchining mehnati ham, tadbirkorning tashabbusi ham, olimning tafakkuri ham, o‘qituvchining sabog‘i ham bir-birini to‘ldiradi.

Eng muhimi, jarayon markazida inson turibdi. Chunki taraqqiyotimizning eng ishonchli o‘lchovi qancha bino qurilgani, qancha mahsulot ishlab chiqarilgani yoki qancha eksport qilinganigina emas. Insonning o‘z yurtida mehnat qilib, oilasini boqishi, farzandi uchun yaxshi ta‘limni ko‘zlashi, keksaydanga munosib tibbiy xizmatga ishonishi, ertangi kunini rejalashtira olishi — taraqqiyotning hayotdagi eng oddiy, ammo eng haqqoniy mezonlaridir.

Balkim yillar o‘tib, bugungi kunga yana bir bor nazar tashlarmiz. Shunda ishga tushirilgan 72 ta loyiha va 91 ta obyektni alohida-alohida sanamasmiz. Ularni bir davmning belgisi, iqtisodiyotdagi yangi bosqichning ko‘rinishi sifatida eslarmiz. Chunki ba‘zi binolar vaqt o‘tishi bilan eskiradi. Raqamlar o‘zgaradi. Yangi loyihalar ularning o‘rnini egallaydi. Ammo inson hayotida boshlangan o‘zgarishlar uzoq yashaydi.

Kecha orzu bo‘lgan narsa bugun voqelikka aylanadi. Bugungi voqelik esa ertangi orzular uchun yo‘l ochadi. Mamlakat taraqqiyotining eng katta ma‘nosi ham, ehtimol, ana shunda.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

MUKOFOT SHUNCHAKI RAG‘BAT EMAS...



Faxr



qator imtiyozlar berilib, davlat tomonidan doimiy qo‘llab-quvvatlanayotgani odamni ruhlantiradi. Bir vaqtlar o‘z pulini ololmagan biz kabi fermerlarga bugun xarajatarining bir qismi subsidiya tarzida qaytarib berilayotgani, mahsulot yetishtirishda subsidiyalarni joriy etilgani aytishigagina oson. Bunday ko‘mak dunyoning hech bir davlatida bo‘lmasa kerak. Buning ortida, avvalo, soha vakillari, qolaversa, xalqimiz manfaatdorligi ko‘zlangani ham bor gap. Maqsad — yurtimizda oziq-ovqat xavfsizligi, bozorlarda narx-navo barqarorligini ta‘minlash.

Xususan, fermerlarga birja orqali sotiladigan har bir kilogramm paxta terimi uchun 1000 so‘mdan subsidiya tarzida qaytarilishi biz uchun katta imkoniyat. Bu yana o‘sha iqtisodiy manfaatdorlikka borib taqaladi. Fermer subsidiya tarzida qaytarilgan qo‘shimcha mablag‘ hisobidan yangi texnika oladi, to‘lovlarini vaqtida amalga oshiradi. Asosiysi, kayfiyati va xotirjamligi bo‘ladi. Bunday rag‘batlar bizni ko‘proq ishlashga, yangi maqsadlar qo‘yishga undaydi.

Mustaqilligimizning 35 yillik shodiyonasi arafasida bizga topshirilgan yuksak mukofotlar

shunchaki rag‘bat emas, balki katta ishonch va mas‘uliyatdir. Kecha ko‘ksaroy qarorgohida Prezidentimiz ishtirokida bo‘lib o‘tgan marosimda buni chuqurroq his qildik. Davlatimiz rahbari o‘z nutqida har bir soha vakili qatori dehqon va fermerlar mehnatini e‘tirof etganida cheksiz g‘ururlandik.

Mukofotlanganlarning ko‘zi ishonch, faxr, minnatdorlik tuyg‘usidan yonib turganiga guvoh bo‘ldim. Bu qilayotgan ishimizga, yurtimiz taraqqiyoti, ertangi kuniga ishonch, erishayotgan natijalarimizdan faxr, kasbimizdan baraka topayotganimiz, farovon hayotimiz uchun shukronalikdir. Davlatimiz rahbari alohida ta‘kidlaganidek, yangi O‘zbekistonning eng katta natijasi bu — o‘zgaragan inson, o‘z kuchiga ishongan fuqaro, ertangi kunga daxldorligini his qilayotgan jamiyattir.

Biz ana shu jamiyatni yanada yuksaltirishdan charchamaymiz. Ochiq‘i, ko‘ksimga taqilgan faxriy unvon shijoatimiz yanada oshirdi. Endi to‘xtash yo‘q. Bor bilim va tajribam bilan yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga hissa qo‘shishdan charchamayman.

Namangan viloyati



YANGI O'ZBEKISTON

Tarixga nazar solsak, har qanday buyuk yuksalish va sivilizatsiyalar uygʻonishi davrida erkin fikr, ilm-fan hamda maʼrifat yetakchi oʻringa chiqqan. Jadid bobolarimiz ham xalqni jaholat botqogʻidan qutqarishda asosiy qurol sifatida bejiz milliy matbuotga tayanmagan.

35 YIL
5

2026-yil 31-avgust, 179-son



Nuqtayi nazar

STRATEGIK SHERIKLARning ilmiy-maʼrifiy aloqalari mustahkam, INTILISHLARI MUSHTARAK

Bahodir MAʼMUROV,
Buxoro davlat pedagogika instituti
rektori, pedagogika fanlari doktori,
professor



Globalashuv va geosiyosiy jarayonlar nihoyatda murakkab tus olayotgan, mamlakatlar oʻrtasidagi munosabatlar yangi mazmun va shakllar bilan boyib borayotgan bir davrda xalqlar oʻrtasidagi azaliy doʻstlik, oʻzaro hurmat va ishonchning davlatlararo munosabatlar mustahkamligidagi ahamiyati tobora ortyapti. Ayniqsa, tarixiy ildizlari, tili, madaniyati, maʼnaviy qadriyatlari va dunyoqarashi bir-biriga yaqin xalqlarning hamjihatligi nafaqat ikki davlat taraqqiyoti, balki butun mintaqadagi tinchlik va barqarorlik uchun juda muhim. Oʻzbekiston va Ozarbayjon xalqlarining koʻp asrlik qardoshligi ana shunday mustahkam maʼnaviy poydevorga ega.

Bugun esa bu qardoshlik strategik sheriklik va ittifoqchiligidan iborat tayanishga aylanmoqda. Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevning yurtimizga navbatdagi tashrifi ham ana shu strategik hamkorlikning eng yorqin ifodasi desak, yangilishmayiz. Mazkur tashrif nafaqat siyosiy va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, balki inson kapitalini rivojlantirish, madaniyat, ilm-fan va taʼlim sohalaridagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish jihatidan ham katta ahamiyatga ega boʻldi. Xususan, tashrif doirasida oliy darajadagi muzokaralar, Oliy davlatlararo kengashning uchinchi yigʻilishi oʻtkazildi. Qator muhim hujjatlar imzolandi, yangi investitsiyaviy va iqtisodiy loyihalar boshlandi. Madaniy-maʼrifiy tashabbuslar amalga oshirildi.

Har bir mamlakatning taraqqiyoti taʼlimga berilayotgan eʼtibor bilan oʻlchanadi. Pedagog sifatida meni, tabiiyki, Oʻzbekiston — Ozarbayjon hamkorligining taʼlim va ilm-fan yoʻnalishi alohida qiziqiradi. Chunki ikki davlat oʻrtasidagi bugungi hamkorlikning uzoq muddatli samaradorligi ayni shu bilan bevosita aloqador.

Hamkorlikning ustuvor yoʻnalishi boʻlgan taʼlim sohasi davlat rahbarlarining nazaridan chetda qolgan yoʻq. Bungacha 2024-yilda ikki tomon oʻrtasida maktabgacha taʼlim, kasbiy taʼlim, oʻrta maxsus, oliy taʼlim va ilm-fan sohalaridagi hamkorlikka oid hujjatlar imzolangan edi. Fuzuliy shahrida Mirzo Ulugʻbek nomidagi maktabning ochilishi esa taʼlim sohasidagi hamkorlikning oʻziga xos ramzi boʻldi. Oʻzbekiston tomonidan qurilgan ushbu maktab nafaqat oʻquv masalani, balki ikki xalq doʻstligining yosh avlod qalbidagi timsolidir.

Endi Nizomiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy pedagogika universitetining yangi kampusi ana shu maʼnaviy koʻpriknining yana bir salmoqli boʻgʻiniga aylandi. Yangi Toshkent hududida 40 gektar maydonda barpo etilayotgan ushbu zamonaviy taʼlim maskanining birinchi bosqichida 12 ming oʻrinli besh qavatli oʻquv binosi va ilgʻor laboratoriya majmuasi foydalanishga oʻzlashtirildi. Prezidentlar ochilish marosimida ramziy lentani kesib, universitet hovlisiga koʻchat oʻtqazganini esa ikki davlat oʻrtasidagi maʼrifiy bogʻliqlik va kelajakka ishonch ramzi sifatida talqin etish mumkin.

Shubhasiz, Nizomiy Ganjaviy — birgina Ozarbayjonning emas, butun turkiy va Sharq adabiy-estetik tafakkurining buyuk namoyandasi. Uning nomi Oʻzbekiston poytaxtidagi pedagogik taʼlimning yirik dargohiga berilgani ikki xalq oʻrtasidagi maʼnaviy rishlatlarning naqadar teranligini anglatadi. Buyuk ozarbayjon shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy merosiga bagʻishlangan muzey ekspozitsiyasida esa adibning boy maʼnaviy merosi, hayoti va ijodi, shuningdek, oʻzbek va ozar xalqlari oʻrtasidagi koʻp asrlik madaniy va adabiy aloqalar aks etgani bilan diqqatga sazovor.

Navbatdagi qadam ikki mamlakat oʻrtasida taʼlim, ilm-fan borasidagi yangi imkoniyatlarni ochish va oʻzaro ilmiy hamkorlik masalalarini chuqurlashtirishdan iborat. Pedagogika universiteti kelajak avlodga taʼlim-tarbiya beradigan muallimlar tayyorlanadigan maskan. Shu jihatdan uning zamonaviy infratuzilimga ega boʻlishi, xalqaro hamkorlikka ochiqligi, ilm-fan va innovatsiyalarga tayanishi butun jamiyatning kelajagiga daxldor masala.

Madaniyat sohasidagi hamkorlik ham oʻzining yorqin natijalarini koʻrsatmoqda. Ushbu qardosh xalqlar asrlar davomida adabiyot, musiqa, sanʼat, ilm-fan va maʼnaviyat sohalarida bir-birini boyitib, toʻldirib kelgan. Alisher Navoiy va Nizomiy Ganjaviy ijodiy merosi, mumtoz adabiyot anʼanalari, Sharq tafakkuri, umumiy turkiy-madaniy qadriyatlar xalqlarimizni birlashtiradigan ulkan maʼnaviy makondir.

Oʻzbekistonning Ozarbayjondagi madaniyat kunlari, oʻz navbatida, Ozarbayjonning mamlakatimizdagi madaniyat kunlari, Shusha kunlarining Xivada oʻtkazilishi, sanʼat festivallari, adabiy anjumanlar doʻst xalqlarning bir-birini yanada teran anglashiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, Buxoro va Lochin, Urganch va Xonkendi, Urganch va Naxchivon shaharlari oʻrtasida birodarlik munosabatlari oʻrnatilishi toʻgʻrisidagi bayonnomalar imzolandi. 2027-yilda Oʻzbekiston va Ozarbayjon birgalikda FIFA U-20 jahon chempionatiga mezbonlik qilishi esa ikki davlat madaniyat va sport sohasidagi hamkorligining yorqin namunasi sifatida alohida eʼtiborga molik.

Bugun juda yuqori darajaga koʻtarilgan oʻzaro doʻstona munosabatlar va birgalikdagi saʼy-harakatlar zamirida 2024-yil avgustda tomonlar oʻrtasida Ittifoqchilik munosabatlari toʻgʻrisidagi shartnoma imzolangan, taʼlim,



fan, madaniyat, turizm, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan koʻplab hujjatlar qabul qilingani, davlat rahbarlarining oqilona siyosati mujassam.

Bu galgi tashrif esa ushbu munosabatlarning institutsional asoslarini yanada mustahkamlab, Oliy davlatlararo kengashning uchinchi yigʻilishi davlatlar oʻrtasidagi strategik muloqotni muntazam va tizimli shaklda davom ettirish uchun muhim mexanizmga aylanganini koʻrsatdi. Ozarbayjon yetakchisi davlatimiz rahbari haqida fikr bildirarkan, ikki davlat oʻrtasidagi munosabatlarning yuksalishida Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan oʻrnatilgan samimiy doʻstlik va oʻzaro ishonch alohida oʻrin tutishini, uning birodarlik, birlik va ittifoqchilikni mustahkamlash yoʻlidagi tinimsiz saʼy-harakatlari qardosh yurtda chuqur hurmatga sazovor ekanini taʼkidladi. Bu esa mamlakatlar oʻrtasidagi aloqalar qanchalik mustahkam huquqiy asosga ega boʻlmasin, ularning amaliy

samarasi, avvalo, siyosiy iroda, oʻzaro ishonch va insoniy munosabatlarga bogʻliqligining amaliy isbotidir.

Shu bilan birga, davlatlararo munosabatlar faqat siyosiy muloqot bilan cheklanib qolmay, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalar ham ichil kengayishi muhim. Mamlakatlar oʻrtasidagi oʻzaro tovar ayirboshlash qiymati 2025-yilda 795 million dollar boʻlgan. 2026-yilning besh oyida esa bu koʻrsatkich yana 33 foiz koʻpayib, 144 million dollarni tashkil etdi. Eng katta maqsadlardan biri 2030-yilga borib oʻzaro tovar ayirboshlash qiymatini 1 milliard dollarga yetkazish boʻlib, bu ikki qardosh xalqning iqtisodiy integratsiyasi va oʻzaro manfaatli hamkorlik sari dadil qadam tashlayotganidan dalolat, albatta.

Transport-logistika sohasida ham muhim yutuqlarga erishildi. Oʻzbekiston va Ozarbayjon oʻrtasidagi tranzit yuk tashish hajmi 2025-yilda 1,4 million tomani tashkil etgan boʻlsa, 2026-yilning birinchi yarmida bu koʻrsatkich oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 12,2 foiz oshdi.

Markaziy Osiyo bilan Kavkaz va Yevropa bozorlarini bogʻlovchi transport yoʻlaklarining rivojlanishi har ikki mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazaridan, Transkaspian xalqaro transport yoʻlagi, temir yoʻl va dengiz logistikasini rivojlantirish, yuk tashish imkoniyatlarini kengaytirish, yangi transport infratuzilmasini yaratish kun tartibidagi masalalardan.

Ikki davlat Oʻrta yoʻlak — Kaspiy dengizi orqali Markaziy Osiyoni Janubiy Kavkaz va Yevropa bilan bogʻlovchi tranzit tarmogʻi orqali bogʻlanishni kuchaytirishga kelishib oldi. Davlatimiz rahbari Kaspiy dengizida qoʻshma flot yaratish boʻyicha ishlarni jadallashtirish rejalari ham maʼlum qiladi. Bu esa mintaqaviy transport-logistika tizimini tubdan yangilashga xizmat qiladigan qaror. Shuningdek, Oʻzbekiston uchun parom qurilishi masalasida ham kelishuvga erishilgani maʼlum qilindi.

Buxoro — Sharq sivilizatsiyasining eng qadimiy beshiklaridan, ilm-maʼrifat va maʼnaviyat shahri. Prezidentlarning 24-avgust kuni Sharif shaharga tashrifi ham ushbu tarixiy jarayonning mantiqiy davomi boʻldi. Buxoro bilan Ozarbayjon oʻrtasidagi aloqalar ham shunchaki zamonaviy diplomatik munosabatlar mahsuli emas. Bu tarixiy shahar ikki xalqning qadimiy savdo yoʻllari, ilmiy-maʼrifiy aloqlari, adabiy va madaniy mustahkamligini namoyon etadigan muhim markazdir.

Menimcha, bugungi Oʻzbekiston — Ozarbayjon munosabatlarning eng katta kuchi

JAMIYATNI RUHLANTIRUVCHI KUCH

YOXUD UCHINCHI RENESSANSNI BAPRO QILISHDA MILLIY MEDIANING OʻRNI

Shu oʻrinda esa jamiyat qaysi yoʻnalishda harakatlanmasin, uning yurak urishi va qon bosimini aniq koʻrsatib beruvchi oʻziga xos barometr ommaviy axborot vositalari desak, mubolagʻa boʻlmaydi. Oʻtgan davr mobaynida, ayniqsa, soʻnggi yillarda mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy qiyofasi tubdan oʻzgardi hamda mazkur yangilanishlar shabadasi matbuot va media maydonida ham yaqqol sezildi. Jamiyatda erkin fikr uygʻonishi, fuqarolarning oʻz haq-huquqlarini teran anglab yetishi oʻz-oʻzidan roʻy bergani yoʻq, albatta.

Bir vaqtlar xalq dardi va muammolaridan uzilayotgan, aksariyat hollarda balandparvoz soʻzlar iskanjasi tashib qolgan jurnalistika bugun yangicha qiyofa kasb etdi. Matbuot sahnasiga dadil fikr, tanqidiy yondashuv hamda tahliliy mushohada qaytdi. Yurtimizda soʻz erkinligini taʼminlash yoʻlidagi amaliy ishlar mevasini bera boshladi.

Bu kabi ijobiy oʻzgarishlarning tub negizida, shubhasiz, davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi va demokratik tamoyillarni hayotga joriy etish yoʻlidagi qatʼiy tashabbuslari mujassam. Mamlakatimiz yetakchisining bevosita eʼtibori hamda qoʻllab-quvvatlashi natijasida qalam ahli oʻzining chinakam kuchini his qildi, jamiyatdagi kamchiliklarni dadil koʻtarib chiqish va ijtimoiy adolat minbariga aylanish imkoniga ega boʻldi. Jurnalistika endilikda shunchaki voqea-hodisalarni qayd etuvchi yoki maqtovlarni qatorlashtiruvchi vosita emas, xalqni qiynayotgan masalalarni ildizi bilan tahlil qilib, ularga yechim izlovchi, eng muhimi, taʼsirchan jamoatchilik nazoratini oʻrnatuvchi kuch sifatida maydonga chiqdi.

Davlat va jamiyat oʻrtasidagi uzviy aloqani mustahkamlashda xususiy sektor ulushining hisssasi eʼtirofga munosib. Nodavlat telekanallar, mustaqil internet nashrlari hamda ijtimoiy tarmoqlardagi faol ijodkorlar xalqimizning oʻy-yaxollari, orzu-umidlari va tashvishlarini roʻy-rost namoyon etuvchi koʻzguga aylandi.

Aynan ularning saʼy-harakatlari bilan chekka hududlardagi muammolar ham keng miqyosda muhokama qilinib, oʻz yechimini topmoqda. Davlat va hokimiyat idoralari xususiy nashrlar koʻtarib chiqayotgan masalalarga zudlik bilan munosabat bildirayotgani, tanqidlar asosida amaliy choralar koʻrilayotgani va mansabdor shaxslarning xalq bilan bevosita muloqotga kirishayotgani — soʻz erkinligi amalda taʼminlanayotganining yorqin isboti. Davlat idoralari va fuqarolar oʻrtasidagi axborot muloqot aynan mustaqil ommaviy axborot vositalari koʻmagida samarali yoʻlga qoʻyilmoqda. Mazkur hamkorlik hamda bir-birini eshitish madaniyati jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash barobarida odamlarning erangi kunga boʻlgan ishonchini oshirayotgani ham haqiqat.

Tarixga nazar solsak, har qanday buyuk yuksalish va sivilizatsiyalar uygʻonishi davrida erkin fikr, ilm-fan hamda maʼrifat yetakchi oʻringa chiqqan. Jadid bobolarimiz ham xalqni



jaholat botqogʻidan qutqarishda asosiy qurol sifatida bejiz milliy matbuotga tayanmagan. Bugungi kunda ham ushbu ezu anʼana oʻzining mantiqiy davomini boshdan kechirmoqda. Davlatimiz rahbari ilgari surgan yangi Oʻzbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish gʻoyasi juda chuqur oʻylangan, aniq mexanizm va strategiyalarga asoslangan, jamiyat intellektini yuzaga chiqaruvchi tarixiy qadamdur. Milliy



Odiljon TOJIYEV,
Milliy media assotsiatsiyasi
boshqaruv raisi, Oliy Majlis
Qonunchilik palatasi deputati

yuksalishning bu yangi davri oʻzida yuksak maʼnaviyat, zamonaviy taʼlim, innovatsion iqtisodiyot va albatta erkin tafakkurni mujassam etadi.

Bunday ulugʻvor maqsadlar sari tashlanayotgan qadamlar samarasini xalqqa yetkazish, odamlar qalbidagi daxldorlik



hissini uygʻotish hamda islohotlar yoʻlidagi sunʼiy toʻsiqlar-u byurokratik holatlarni xolis yoritishda matbuotning oʻrni beqiyos boʻlmogʻi shart. Zamonning oʻzi qalam ahli bilan jamiyatni uygʻotuvchi, xalqni teran fikrlashga undovchi va millatning intellektual salohiyatini yuksaltiruvchi asosiy harakatlantiruvchi kuch boʻlishni qatʼiy talab etmoqda. Demak, axborot makonida halollik, xolislik va chuqur tahlilni qaror toptirish, mamlakatimiz ravnaqi hamda Uchinchi Renessans gʻoyasining tomir yozishiga munosib xizmat qilgan boʻlamiz.

Shu oʻrinda eʼtibordan chetda qoldirib boʻlmaydigan yana bir dolzarb masala borki,

vositalari vakillari milliy kontent yaratishga boʻlgan masʼuliyatni susaytirmasliklari lozim.

Yoshlarimiz ongi va dunyoqarashini sof milliy qadriyatlar, vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat va umuminsoniy eziguliklar asosida boyitish maqsadida ommabop, yuqori sifatlilik hamda taʼsirchan milliy axborot mahsulotlarini koʻpaytirish hayotiy zarurat. Biz faqatgina badiiy va hujjatli filmlar, milliy qahramonlarimiz hayotidan hikoya qiluvchi taʼsirchan dasturlar hamda oʻzbek tilining boy imkoniyatlarini namoyon etuvchi intellektual loyihalar orqaligina minglab oʻquvchi-yu tomoshabinlarni oʻz atrofimizda jipslashtira olamiz.

Yaqinda poytaxtimizda oʻtkazilgan “Birlashish nuqtasi” media haftaligi ham bu boradagi amaliy qadamlardan biri boʻldi. Unda 70 ga yaqin nodavlat telekanal, radio va onlayn nashrlar yagona maydonda jamlanib, milliy kontent yaratuvchilarning hamjihatligini namoyish etdi. Bu tashabbus BMT, YXHT va UNESCO kabi nufuzli tashkilotlar tomonidan eʼtirof etilib, mamlakatimizdagi soʻz erkinligi siyosati toʻgʻri yoʻlda ekanini yana bir bor tasdiqladi.

Taʼkidlash joiz, axborot isteʼmolchisining saviyasi va talabi oʻtgan yillarda mislsiz darajada oʻsdi. Oʻquvchi endilikda voqelikni shunchaki qabul qiladigan kuzatuvchi emas,



uni chuqur tahlil etadigan, rostni yolgʻondan ajrata biladigan, haqli eʼtirozlarini ochiq bildiradigan, mustaqil fikrli faol ishtirokchidir. Shunday ekan, media vakillari ham qotib qolgan qoliplardan voz kechib, kreativ yondashuvlarni oʻzlashtirishi, shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan unumli foydalanishi yanada amaliy zaruratga aylandi.

Haqiqiy ijodkor oʻz soʻzining qudrati va masʼuliyatini teran anglagan holda faqat millat manfaatini yoʻlida qalam tebratishi, eʼlon qilinaotgan har bir maqola, reportaj yoki koʻrsatuv ortida inson taqdiri, yurt ravnaqi va jamiyat kelajagi turganini dildan his qilishi lozim. Axborot maydonida yaratilayotgan har bir sifatlilik mahsulot tarix sifatida kelajak avlodlar uchun muhranli borishini unutishga haqqimiz yoʻq. Erkinlik hech qachon qoidalarini unutish yoki masʼuliyatsizlikni anglatmaydi, aksincha, u vatan, xalq va vijdon oldida javobgarlikni talab etuvchi ulugʻ neʼmatdir. Biz aytayotgan har bir soʻz tarozi pallasida turibdi, uning tosh bosishi esa faqatgina oʻzimizning xolisligimiz va kasbiy mahoratimizga bogʻliq.

Mustaqillik ayyomi chinakam maʼnodagi sarhisob lahzasini ekanini inobatga olsak, bosib oʻtgan qisqa, ammo mazmunli, mashaqqatli va sharafli yoʻlimiz bizga katta saboq beradi. Jamiyat faqatgina qiyinchiliklar va toʻsiqlarni yengib oʻtish orqaligina toblanadi. Eritilgan yutuqlardan ruhanish bilan bir qatorda yoʻl qoʻyilgan xato va kamchiliklardan toʻgʻri xulosa chiqarish, oldinda turgan donovlardan muvaffaqiyatli oʻtish uchun ruhan va jismonan kuch toʻplash ayni muddod.

Yangi Oʻzbekistonning jahon hamjamiyatidagi nufuzi yuksalib, xalqaro maydonda qatʼiy soʻzini aytayotgan bir pallada matbuotimiz ham global axborot makoniga dadil kirib borishi, mamlakatimizning ijobiy imijini dunyoga tanitishda, islohotlar mohiyatini jahon ommasiga yetkazishda avangard rolini bajarishi shart. Jurnalistika sohasi vakillari, media menejerlar, tahririyat xodimlari va umuman, axborot siyosatiga daxldor har bir insonning yangi Oʻzbekiston shonli yilnomasini yaratishga qoʻshadigan hisssasi faqatgina qatʼiyat, chuqur bilim hamda fidoyilik orqaligina oʻr yobga chiqadi.

u bevosita milliy kontent yaratish jarayoni bilan bogʻliq. Globalashuv shiddat bilan jadallashib, axborot xurujlari va mafkuraviy tahdidlar turfa jozibador koʻrinishlarda namoyon boʻlayotgan hozirgi zamonada milliy oʻzligimiz, qadriyatlarimiz va boy tariximizni asrab-avaylash ustuvor vazifaga aylandi. Chegarasiz internet tarmogʻi orqali yot gʻoya va madaniyatlarining taʼsiri soat sayin kuchayib borayotgan bir sharoitda ommaviy axborot



31-avgust — Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni

TARIXIY ADOLATNI TIKLASH – BURCH VA MAS'ULIYATIMIZ



— Muzei arxivlarini ochish bo'yicha qo'yilgan vazifalar olimlar faoliyatida va tarix haqiqatini tiklashda qanday amaliy natijalar berdi? Bu tarixiy burilishning muzei hayotidagi samaralari haqida gapirsangiz.

— 2017-yilning 31-avgust sanasi nafaqat bizning muzei, balki butun millatimiz tarixini asl holiga qaytarish yo'lidagi tub burilish nuqtasi bo'lgan edi. O'sha kuni Prezidentimiz majmuamizga tashrif buyurib, qatag'on qurbonlarining nomlarini tiklashimiz, ruhlarini shod qilishimiz shart deb oldimizga katta vazifalarni qo'ygan kechagidek yodimda. Bu e'tibor muzeimizning bugungi qiyofasida, nufuzida va ilmiy ishlarimizda katta aks sado berdi. Davlatimiz rahbari viloyatlarda ham muzeining bo'limlarini tashkil etish bo'yicha taklif berib, muzeilar xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun muqaddas ziyoratgoh, ma'naviyat va ma'rifat o'chog'i bo'lib qolishi kerakligini ta'kidladi.

2017-yil 22-noyabrda Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi va muzeimiz Vazirlar Mahkamasi tasarrufiga o'tkazilib, faoliyati yanada takomillashtirildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi 13 ta oliy ta'lim muassasasi tuzilmasida Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeylari tashkil etildi.

— Hozirgi kunda Qatag'on qurbonlari xotirasi muzei va uning hududiy filiallari oldiga qanday vazifalar qo'yilgan?

— Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeylari oldiga faqatgina o'tmish eksponatlarini saqlash emas, ularni katta ilmiy, ma'rifiy va g'oyaviy markazga aylantirish bo'yicha muhim vazifalar turibdi. So'nggi yillarda minglab yurtdoshlarimiz

Qatag'on qurbonlarini yod etish milliy o'zligimizni anglash, tarixiy adolatni tiklash va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash demakdir. O'tmishning hali to'liq ochilmagan sahifalarini o'rganish, nohaq qurbon bo'lgan ajdodlarimiz pok nomini tiklash va ibratli hayotini kelajak avlod qalbiga muhrlash ham sharafligi, ham muqaddas vazifa. Ayni mavzuda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzei direktori, tarix fanlari doktori, professor Baxtiyor HASANOV bilan suhbatlashdik.



oqlangan bo'lsa-da, arxivlarda hali ochilmagan, o'rganilmagan ishlar bor. Vazifamiz birorta ham begunoh qurbonning e'tibordan chetda qolmasligini ta'minlashdir. Millat fidoyilari bo'lmish jaddilarning nafaqat siyosiy fojiasini, balki ular qoldirgan ilmiy, adabiy va ma'rifiy merosni o'rganish va jamiyatga taqdim etish ham vazifamizga kiradi. Zamon talabidan kelib chiqib, barcha arxiv hujjatlari, suratlari va eksponatlarimiz yagona elektron bazasini yarataymiz. Bu istalgan tadqiqotchi yoki yoshlar uchun ma'lumot olish imkonini kengaytiradi.

— Tarix faqat kitoblarda yoki muzei eksponatlarida qolib ketmasligi, balki tirik xotiraga aylanishi kerak. Bu borada jaddi bobolarimizning ezgu g'oyalarini keng jamoatchilikka, ayniqsa, yosh avlod qalbiga singdirish uchun qanday tadbirlar va loyihalar amalga oshirilmoqda?

— Maqsadimiz muzeini shunchaki o'tmish eksponatlarini saqlanadigan joy emas, balki katta ma'naviyat va tarbiya maskaniga aylantirishdir. Shu bois, yoshlar o'tmishni chuqur anglashi uchun muzei zallarida "Xotira darslari" va "Jadidlar izidan" ochiq muloqotlarini o'tkazish an'anaga aylandi. Soha

tuzum davrida ham, undan keyin ham uzoq vaqt oqlanmay, "qora ro'yatlar"da qolib ketgan?

— Buning zahirida katta siyosiy va insoniy armonlar yotibdi. Minglab vatandoshlarimizning uzoq yillar oqlanmay qolganiga bir necha sabab bor edi. Ya'ni sobiq sho'ro hukumati o'z davrida faqat tizimga xavf tug'dirmaydigan odamlariga oqlagan, millat

— Bu bo'yicha nimalar qilinmoqda?

— Bugungi kunda arxivlar eshigi tarixchilar uchun to'liq ochildi. Ilgari soxta hujjatlarda "bosmachi" yoki yana nimalardir deb qoralangan bobolarimizning aslida o'z tuprog'ini himoya qilgan chin vatanparvarlar ekanini isbotlandi. Oliy sud tomonidan mingga yaqin vatandoshimizning rasman oqlanishi nafaqat huquqiy g'alaba, ularning avlodlari qalbidagi ko'p yillik dog'ni yuvib tashlagan tarixiy adolat tantanasini hamdir. Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzei tomonidan o'sha davrda qatag'on qilingan va ba'zi sabablarga ko'ra oqlanmay qolgan yurtdoshlarimizni oqlash borasida muhim ishlar qilindi. Minglab kishilar sovet davridagi siyosiy qatag'onlar girdobida nohaq ayblanib, surgun qilingan, otib tashlangan va uzoq yillar davomida ularning nomlarini oqlash imkonini bo'lmagan. Oliy sud tomonidan 2021-yildan shu kunga qadar jami 1381 kishining nomi oqlandi.

Biz bugun arxiv changlari orasida qolib ketgan har bir inson taqdirini tiklashni millat va insoniylik oldidagi muqaddas burchimiz deb bilamiz va bar jaroni hali to'xtatgani yo'q, tadqiqotlarimiz izchil davom etmoqda.

— Muzei jamoasi va olimlar tomonidan arxivlardan olingan yangi tarixiy faktlar hamda tiklangan nomlar haqida ham so'zlab bersangiz.

— Joriy yil tarixchi olimlarimiz va muzei jamoasi uchun haqiqiy kashfiyotlar yili bo'ldi. Izchil ilmiy qidiruvlar natijasida ilgari hech bir ro'yxatda bo'lmagan, soxta ayblovlar bilan otib tashlangan yoki surgun qilingan mingga yaqin vatandoshimizning shaxsi va taqdiri aniqlanib, ularni rasman oqlash uchun hujjatlar Oliy sudga taqdim etildi. Mahalliy va xorijiy arxivlardan jaddi bobolarimiz o'z ko'li bilan yozgan asl xatlar, tergov paytidagi jassoratli javoblari va ular ustidan chaquv yozgan soxta guvohliklarning asl bayonnomalari topildi. Qatag'on qilinganlarning oila a'zolari, "vatan xo'inining oilasi" sifatida surgun qilingan ayollar va bolalarning ayanchli taqdiriga oid aniq raqamlar va hujjatlar ilk bor ilmiy muomalaga kiritildi. To'plangan yangi tarixiy faktlar shunchaki arxivda qolmadi, ular hududlar kesimida ko'p tomli kitoblari holiga keltirilib, taqdim etildi. Ilmiy xodimlarimizdan iborat maxsus guruhlar Rossiya, Qozog'iston va Germaniya fondlariga samarali ilmiy

ekspeditsiyalar uyushtirdi. U yerdan yurtimizdan surgun qilingan va otib tashlangan vatandoshlarimizga oid yuzlab yangi tergov hujjatlari, shaxsiy xatlar va "o'ta maxfiy" tamg'ali bayonnomalar nusxalari olib kelindi. Muzei ilmiy xodimlari tomonidan o'zbek, rus, ingliz va nemis tillarida o'nga yaqin kitob va monografiya, yuzga yaqin ilmiy maqola va tezis chop etildi. Bu ishlar qatag'on qilinganlar tarixini chuqur va har tomonlama o'rganishga xizmat qilmoqda.

2026-yilda "Tarixning noma'lum sahifalari" to'plamining 13-kitobi kamina muharrirligi ostida nashrdan chiqarildi. Unda tariximizning hali to'liq o'rganilmagan, ilmiy jihatdan muhim bo'lgan sahifalari yoritilgan.

— Sun'iy intellekt, raqamli avatarlar va interaktiv xaritalarning muzei ekspozitsiyasiga kirib kelishi tarixni jonlantirishda qanday o'zgarish yasaqda?

— Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeining ekspozitsiyasi "Yangi O'zbekiston: Uchinchi Renessans asoslari" konsepsiyasi asosida tubdan yangilandi. Zamonaviy infokiosklar, multimedia monitorlari, interaktiv ekranlar va raqamli texnologiyalar joriy etildi. Tarixiy hujjatlar, fotosuratlar va muzei ashyolari zamonaviy ekspozitsiya yechimlari bilan uyg'unlashtirildi.

Ekspozitsiyada tarixiy manba, badiiy obraz va raqamli texnologiya bir butun tizimga aylandi.

Bu esa tashrif buyuruvchilarga tarixiy voqealarni shunchaki kuzatish emas, balki ularni chuqurroq his qilish va anglash imkonini bermoqda. Ekspozitsiyada sun'iy intellekt, raqamli avatarlar, interaktiv xaritalar va multimedia kontentidan foydalanilishi tarixiy voqealar va shaxslar haqidagi ma'lumotlarni yangi, ta'sirchan shaklda qabul qilish imkonini yaratmoqda.

— Sun'iy intellekt va raqamlashtirishning keng tus olishi insonning jonli mulohazasini so'ndirib, tarixiy haqiqatning asl mohiyatini susaytirib qo'yamaydimi? Nima deb o'ylaysiz?

— Bu masala dunyo muzeyshunosligidagi eng dolzarb bahslardan biri. Biroq tajriba ko'rsatmoqdaki, to'g'ri foydalanilsa, texnologiya tarixiy haqiqatni o'chirib yubormaydi. Biz muzei ekspozitsiyalarida multimedia yoki 3D texnologiyalardan foydalanilganida, ularning zahirida faqat haqqoniy arxiv hujjatlari turadi. Masalan, sensorli ekranga jaddi bobolarimiz surati yoki tergov bayonnomasi joylashtiriladi. Texnologiya hujjati to'qib chiqarmaydi, balki yillar davomida chang bosib yotgan qog'ozni yoshlar tushunadigan zamonaviy tilga o'girib beradi.

Muzeyshunoslikda har qanday zamonaviy texnologiya asosida ishonchli tarixiy manba, arxiv hujjati va ilmiy tadqiqot turishi kerak.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Gulichehra DURDIYEVA suhbatlashdi.



Kamolot pillapoyasi

Shiddatli yangilanishlar tufayli yurtimiz yildan yilga yoshlar orzu-maqsadlari ro'yogba chiqayotgan chinakam imkoniyatlar doryoga aylanib bormoqda. Ayniqsa, so'nggi o'n yillikda bugungi yosh avlodning istiqlol ne'matidan bahramand bo'lib, hur fikrli bo'lib ulg'ayayotgani, erishayotgan natijalari hamda rejalarini shudid bayon etayotgani ham mustaqillik ne'mati, aslida. Shunday teng imkoniyatlar muhitida mustahkam irodasida bilan yutuqlarga erishib kelayotgan yoshlardan biri – "Kelajak bunyodkori" medali sohibi Chinora G'ulomova. U Buxoro viloyatining Vobkent tumanida yashaydi.

Joriy yil Yoshlar kuni munosabati bilan poytaxtimizning Olimpiya shaharchasida davlatimiz rahbari faol, tashabbuskor va izlanuvchan yoshlar bilan uchrashdi. Ular safida Chinora ham bor edi.

U birinchi guruh nogirani bo'lishiga qaramay, uyda ta'lim olayotgan bolalar uchun Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan tashkil etilgan "O'qi va yuksal" loyihasining faol ishtirokchisi. Chinora imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatda munosib o'rin egallashiga ko'maklashib, jismoniy cheklavlar katta

TAQDIR SINOVLARIGA TASLIM BO'LMAGAN QIZ

HAR KUNIDA MAQSAD, MAQSADLARIDA VATANPARVARLIK MUJASSAM

maqsadlarga va ijtimoiy yetakchilikka to'siq bo'la olmasligini amalda isbotlab kelmogda.

Intiluvchan qizning fidoyiligi va ijtimoiy mas'uliyati munosib e'tirof etilib, "Kelajak bunyodkori" medali bilan taqdirlandi va unga o'zi xohlagan oliy ta'lim muassasasiga davlat granti asosida o'qishga kirish imkoniyati berildi. Bu, shubhasiz, inson qadri ulug'lanayotgan mamlakatimizning o'z farzandiga ko'rsatayotgan yuksak e'tibori va himmatining yorqin ifodasidir.

— Uchrashuvdagi taassurotlarimni so'z bilan ifodalash qiyin. Hayajon shu qadar kuchli bo'ldi, ovozim tirab, xursandligimdan yig'lab yubordim. Prezidentimizning mendan maqsadim va rejalarim haqida so'rashi, kelajakdagi ishlarimga omad tilashi chinakam baxt edi. Bunday yuksak mukofot va oliy ta'lim maskanida tahsil olishim uchun berilgan imkoniyatni hayot yo'llarimga to'shalgan go'zal poyandozga o'xshatsam xato bo'lmaydi, — deydi Chinora. — Qisimat ekan, bolalikning sho'x-shodon damlaridagi zavqni yurakdan tuya olmadim.

Tengdoshlarim bilan yugurib, ko'cha changitib, qiy-chuv qilib koptok o'ynash yuragimda armon bo'lib qolgan. Hatto nuqsonimdan uyaliy, maktab ta'limini ham uyda oldim. Taqdir menga shunday sinovni bergan ekan, qisimatimdan rozi bo'lish, hayotimdan noli maslik, imkonsizlikdan imkon izlashga harakat qilib kelyapman. Meni ming mashaqqat bilan voyaga yetkazgan, beminnat mehr berib, doimo g'amxo'rlik qilib kelayotgan bobom va buvimning bag'rida mahzun xayollarga berilmay, boriga shukur qilib yashashni o'rgandim.

Davlatimiz rahbari bilan uchrashuv esa hayotimdagi eng omadli, hech qachon yodimdan chiqmaydigan va bir umrga tatiydigan quvonchli voqea bo'ldi. Bularning hammasini Yaratganning menga bergan inoyati deb bilaman. Buxoroga qaytganimdan so'ng "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" degan bosh g'oya asosida tashkil etilgan Mustaqillik bayramida Buxoro viloyati hokimi mening "Kelajak bunyodkori" medali

bilan taqdirlanganimni aytib, Buxoro davlat universitetining psixologiya yo'nalishida davlat granti asosida tahsil olish imkonini beruvchi sertifikatni topshirdi. Bu nafaqat bir yoshning ozisi ushlagani, balki yangi O'zbekistonda iste'dod, matonat va ezgu maqsad yo'lida intilgan har bir kishi doimo qo'llab-quvvatlanishiga yorqin isbotdir.

— Nevaram yetti oylik bo'lib tug'ildi. Chaqaloqligidayoq hayot uchun kurashayotgan bir paytda kasbga mas'uliyat bilan yondashmagan tibbiyot xodimasining xatosi oilamiz uchun katta zarba bo'ldi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarga qilinadigan, ammo erta tug'ilganlarga mumkin bo'lmagan emlash amaliyoti tufayli go'daklik chog'idayoq nogiron bo'lib qoldi. — deydi Chinoraning buvisi Nigora aya. — Uni boysbi ikkimiz qaramog'imizga oldik. "Nevaramizni, albatta, davolatamiz, oyoqqa turadi", deya bag'rimizdan qo'ymadik. Qayerda yaxshi shifokor yoki mohir tabib borligini ehsitask,

umid bilan o'sha tomon yo'lga chiqavardik. O'lis hududlarda nevaramning dardiga davo izlab yurgan kunlarimiz juda ko'p bo'ldi. Qisimat ekan, urinishlarimiz besamar ketdi. Chinora tuzalmadi, yurish baxtidan musovo bo'lib, nogironlar aravachasiga suyanib qoldi. Lekin uning qalbiga iymonli bo'lish, ona yurti sevisi, odamlarga yaxshilik qilish va shukur bilan yashash sabog'i chuqur singib qoldi. Xudoga shukur, hozir u bir sog'lom odamdan ham ziyod harakat qiladi, niyatlari yorug', yashashga ishtiyoqi baland. Endi uning kelajagidan xotirjamiz. Nevaramga shunday to'kis sharoit yaratib, o'z farzandiday ko'rgan Prezidentimizdan minnatdormiz!

Darhaqiqat, Chinoraning o'tkir zehnlari, tirishqoq va irodali bo'lib voyaga yetishida bobosi va buvisining xizmati beqiyos. Ularning qaynoq mehri, doimiy o'giti va maslahatlari tufayli qiz har bir kunidan hikmat topib yashashga intilib kelmogda. Ayni kunlarda u viloyat miqyosida bo'lib o'tayotgan Mustaqillik bayramiga bag'ishlangan taqdirlarda buxorolik yoshlar bilan suhbat qurib, davlatimizning yoshlarga bildirayotgan yuksak ishonchi va o'zining kelajakdagi rejalarini haqida ishtiyoq bilan so'zlab bermoqda.

Har qanday sharoitda taqdir sinoviga sabr qilish, nolimay yashash, ezgulik yo'lidan og'ishmaslik, qiyinchilik va yo'qotishlar orasida ham boshqalarga mehr va madad qo'lini uzata olish — inson uchun eng yuksak fazilat. Chinora G'ulomova ham ana shunday nozik jussasiga ulkan matonatni jo etib, davr bergan imkoniyatlar tufayli erkin fikrlash va ezgu maqsadlarini mustaqil amalga oshirish yo'lida intilmogda.

Gulichehra SATTOR qizi, jurnalist

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Qabulxona: (71) 233-56-33
E'lonlar bo'limi: (71) 233-70-98

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

E-mail: info@yuz.uz
Be6-cafir: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-qarar bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeks — 236. Buyurtma — G-846.
29305 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida chop etildi.
Boshmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Sardor Tolliboyev
Musahhihi: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy